

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
«IJOD» JAMOAT FONDI

ZOKIRJON FURQAT

“ISHQINGDA KUYUB, JONO...”

TOSHKENT
«ADABIYOT»
2021

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(5O'zb)

M 74

M 74 Zokirjon Furqat.

"Ishqingda kuyub, jono..." [matn]. {she'rlar}/
Zokirjon Furqat. — T.: «Adabiyot» nashriyoti,
2021. — 124 b.

Loyiha rahbari:

Sirojiddin SAYYID,

O'zbekiston xalq shoiri

Nashrga tayyorlovchi:

Nurboy Jabborov,

filologiya fanlari doktori, professor

"Nazm bo'stoni" ruknining ushbu kitobida ulug' shoir va adib, zamonasining adabiyotshunos va elshunos olimi, mohir xattot va "Zubdat ul-hukamo" ("Hakimlarning sara-si") degan e'tirofga sazovor hakim Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat (1859–1909)ning turli lirik janrlardagi asarlaridan namunalar o'rin olgan. Shoirning ushbu to'plamga kirgan she'rlarida muhabbat va hayot falsafasi, ijodkorning ijtimoiy-siyosiy voqelikka munosabati va ilm-u ma'rifat mavzulari teran mazmun va go'zal badiiy shakl uyg'unligida talqin etilgan. Ushbu nazmiy guldasta she'riyat muhiblariga manzur bo'lishiga ishonamiz.

ISBN 978-9943-6779-4-4

© Zokirjon Furqat, 2021

© «Adabiyot», 2021

* * *

Ibtido qildim banomi xoliqi har du saro,
Qodiri davvor nigahdorandai arshi ulo.

Qodirekim, yetti ko'kni yerga qo'ydi besutun,
Moh-u xurshid-u kavokibdin berib ziynat ango.

Ul qadimu lamyazalkim, avval-u oxir erur,
Avvalig'a ibtido yo'q, oxirig'a intiho.

Soni'ekim, sangi xorodin ko'kartib sabzalar,
Ayladi xori shajardin ming tuman gullar bino.

Ul Karimeki, xaloyiqqa erur in'omi om,
Bas, barobardur ani dargohida shoh-u gado.

Kulli ashyo junbush aylab zikrig'a mashg'uldur,
Vahshiyoni dasht, xaylu-l-bahru murg'oni havo.

Andalib afg'on ila gulshanda aytib hamdini
Sarvni boshida qumri bo'ynig'a solib rido.

Esdi gulshang'a bahor lutfidin zarra nasim,
Toptilar andin chaman shohidlari rangi safo.

Hamdig'a ojiz erur gar ming erur go'yo zabon,
Bir zaboni lol ila Furqat nechuk ayg'oy sano.

* * *

Ey bayozi karaming berdi chamanlarga safo,
Qaddi mavzuning xayoli sarv ilkiq'a aso.

Maqdaming tashrifidin, eynavbahor ijod sho'x,
Ochdi gulshan har gulining bargidin dasti duo.

Charx maydonig'a surding tund, ey
chobuksuvor,
Yetmasun poyi samanding na'lig'a gardi qazo.

Chashmi mardum ruxlaring mir'otidin kasb
etti nur,
Dil ko'zi aylar aning-chun xoki poying to'tiyo.

Juz xati la'ling meni dilxastaga manzur emas,
Xizr zulmatdin ketursa boqmag'um obi baqo.

May ichib tong otqucha rashk aylabon
xunobi g'am,
G'ayr ila sog'ar chekib har qaydasen, ey dilrabo.

Azmi bozor aylading har so' boqib tannoz
o'lub,
Necha yuz ming ahli donish bo'ldi aqlidin
judo.

Poybo'sing orzusida hamisha jon chekib,
O'lturur doim yo'lingda Furqati bedast-u po.

* * *

Bahor ayyomi bo'ldi-yu, tushubdur boshima
savdo —
Ki, lola bargidek ko'nglumda yuz ming
dog'lar paydo.

Nasimi xush tegib bo'ldi hama yer sabza-u
xurram,
Bisoti rang-barangdin topti ziynat bog' ila
sahro.

Dimog'iga tegib nakhat, xurush aylab chaman
ahli,
Biri qumri, biri to'ti, biridur bulbuli shaydo.

Ayon etmish o'zini, yuzlaridin burqani tashlab,
Biri guldur, biri nargis, biri savsan, biri ra'no.

Xudoni(ng) san'atidin gul chiqarmish
jangalistonlar,
Ko'kardi sangi xorodin ajoyib lolai hamro.

Na mumkin borina azmi tamoshoi chaman
etmoq,
Oni har bir gulidur jong'a go'yo nashtari xoro.

Parivashlarni(ng) dog'i bir taraf, ko'nglumda
yuz ming g'am,
To'lub-toshar yurogim dam-badam monandai
daryo.

Zokirjon Furqat _____

Kima aytay bu o'tluq hasratimni,
ey musulmonlar,
Hama jismim kuyub axgar bo'lubdur
qolmayin aslo.

Asiri dardi hijroning bo'lubdur muhtalo
Furqat,
Chu qumri doimo yig'lab deyur, faryod-u
vovaylo.

* * *

Bu zamona xo'bro'sida vafo
Yo'q, tama qilmoq base andin xato.

Oshnolar ham bo'lub begonavash,
On hama begonalarga oshno.

Ettilar hoyi hayotim qat'ini
Harfi "jim" din chektilar tig'i jafu.

Zulfidin ul sho'xlar marg'ul ochib,
Soldilar boshimg'a savdoyi qaro.

Bu jahon ra'nosig'a har kim vafo
Qilsa ko'rmaydur bajuz javr-u jafu.

Ul alifdek qomatining hasrati
Dol yanglig' ayladi qaddim duto.

Ko'zlarini g'amzasi ayni itob,
Qoshlarini shevasi barqi balo.

Shahsuvorekim, samandin na'lig'a
Tegmagay maydon aro gardi qazo.

Furqatiyni oqibat hijron o'ti
Kuydurub xokistarini qildi fano.

* * *

Qaroyg'on dilg'a bergil nuri pokingdin ziyo,
yo Rab,
Ketib zangi gunah, oyinadek topsun jilo,
yo Rab.

Inoyat aylag'il, chiqsun ko'nguldin mosivo
mehri,
Bo'lay tarki havas qilmakda Adhamdek gado,
yo Rab.

Zamon ahli hama begonadur rohi haqiqatda,
O'zungdin o'zga yo'qdur qo'l tutarg'a oshno,
yo Rab.

Kelibman dargahingg'a bosh urub, navmid
yondurma,
Agarchi ayladim g'aflatda ko'p jurm-u xato,
yo Rab.

Nasib et Ka'ba tavfin ro'zi aylab ravzai hazrat,
Turarg'a qolmadi toqat, sanga bu iltijo,
yo Rab.

Haram ichra kirib, ro'yi siyohim yarlara
surtub,
G'uborin chashmi mushtoqimg'a qilsam
to'tiyo, yo Rab.

To'kub qonlig' sirishkim, nola tortib har taraf
borsam,

Qabis-u Marva-yu Miyno bila aylab Safo,
yo Rab.

G'ururi dahri foniy tushti dilga, vahmi uqbo
yo'q,
Faromush aylab o'z jonimg'a qildim ko'p jafu,
yo Rab.

Bu badkirdorliq birla o'lub yer ostig'a
borsam,
"Kechar holim nechuk?" deb dilda ko'p
xavf-u rajo, yo Rab.

Xaloyiq ichra tongla qilmag'aysan xasta
Furqatni,
Habibing hurmati, sharmandai ro'zi jazo,
yo Rab.

* * *

Ko'ngul dardig'a topmay boraman hargiz davо
istab,
Ani umri kiromi, hasrato, bo'lg'ay ado istab.

Necha bosh urdum oxir shayxlarning
ostonig'a,
Nazar holimg'a, shoyad, aylagaylar deb duo
istab.

Necha yurdim adoshib to'g'ri yo'ldin besar-u
somon,
Tutub ilgimni yo'lg'a solsa deb bir rahnamо
istab.

Necha yerga surub yuz yaxshilar yo'lida
o'lturdum,
G'ubori domanidin jon ko'zig'a to'tiyo istab.

Necha zohid ayog'iga niyoz aylab o'zum
soldim,
Meni ul savmaidin quvg'oli turdi aso istab.

Necha izhor qildim, sirri pinhonimni
bilmasdin
O'zing'a on hama begonalarni oshno istab.

Yuray derman chiqib sahrog'a emdi vahshilar
birla,
Zamona mardumidin topmadim hargiz vafo
istab.

Balodin, nosiho, qo'rqutmog'ing ermas
nasihatdin,
Hamisha ishq eli yurmasmu bu yo'lda balo
istab?!

Balo urgan meningdek bormukin bir xasta-yu
ma'yus.
Jahonda hojatig'a topmagan hargiz ravo
istab.

Bu g'amlar sharha-sharha aylagan ko'nglum
g'ami sharhin
Qilurg'a topmasam naylay anis-u g'amzudo
istab.

Yotib erdim kecha yig'lab, bashorat berdi bir
marde:
"Ki dunyo bebaqo, Furqat, qadam urgil
Xudo istab".

* * *

Tabassum birla chiqdi gulruxim guldin savol
aylab,
Qilibon g'unchani xomush ham bulbulni lol aylab.

Tamoshog'a chiqib erdi ko'rarg'a qaddini
shamshod,
Surubon raxshi nozi o'tdi oni poymol aylab.

Ko'rub har oy boshin jonimni qurbon aylasam,
tong yo'q,
Hiloli iyd yanglig' yuz uza qoshin xayol aylab.

Sabo mashshotasi ko'b ham mutarro qilmasin
zulfin,
Parishon ayladi ko'nglum, meni oshuftahol aylab.

Chekib surma qaro nargislarig'a ayladi oro,
Meni o'ldurdi oxir g'ozu birla yuz xol aylab.

Fano bo'ldi muhabbat dashtida ko'b po'ya
qilmoqdin,
Sevinding doimo, Furqat, tamannoyi visol aylab.

* * *

Keldi holimni so'rab bul kun nigorim,
xayriyat,
Yetti o'xshar kecha chekkan oh-u zorim,
xayriyat.

Lashkari g'am poymol etgan edi aylab hujum,
Nogahon keldi yetib ul shahsuvorim, xayriyat.

Ul parirol' hajrida har lahza qon yig'lar edim,
Bojgun etmish jahonni ashkborim, xayriyat.

Javr etib solsa qaro kunlar boshimga
naylagum?
Shodlik birla o'tar laylu nahorim, xayriyat.

Nahsi hijrondin chiqib topdim visoli sa'din,
Toleim hamdam bo'lubdur, baxtyorim,
xayriyat.

Qoldi ko'nglum ajramay ul yor ila vaqti vido,
Keldi qolmay yaxshi joni beqarorim, xayriyat.

Keldi yakbora samandi nozni javlon berib,
Qayda Furqat zor deb chobuksuvorim,
xayriyat.

* * *

Aylama ma'lum hargiz ag'niyog'a ehtiyoj,
Balki qoni' bo'lsang, etma podshog'a ehtiyoj.

Oshnolardin sango yetmas vafo, g'ayr az jafu,
Qilma ravshan, ey birodar, oshnog'a ehtiyoj.

Senda gar bo'lsa tavakkul, shohlardin uz
tama,
Chunki shohlar qilg'uchidur avliyog'a ehtiyoj.

Shaxs ehsonig'a ko'ngul bog'lama, ey bexirad,
Xor o'lursan aylasang ahli saxog'a ehtiyoj.

Hiyladur zohid ishi, andin duo qilmang umid,
Xomlig'dur aylamoq ahli riyog'a ehtiyoj.

Himmatim shulkim, agar dard aylasa jonim
halok,
Bo'lmagay dardim uchun menda davoga
ehtiyoj.

Aylagil, Furqat, tamosho dahr atvorinikim,
Etdilar oxir rasolar norasog'a ehtiyoj.

* * *

Yerga pomol o'ldi gul sayri guliston aylagach,
G'uncha qon yutti yana la'lini xandon aylagach.

Ul barahmanzoda har dam barqdek
o'ynab-kular,
Yig'latib ko'z yoshimi abri bahoron aylagach.

Aql ila hushim ketib hayratda qoldim ul dame
Burqa'in ochib yuzin andak namoyon
aylagach.

Tutmish olam arsasini sunbul-u rayhon isi,
Xastalar ko'ngli kibi zulfin parishon aylagach.

Bo'ldi Majnundek muqimi dashti anduhi firoq,
Har kishikim, orzuyi vasli jonon aylagach.

Chun nigor etmish qo'lin xun ila iyd o'lg'och
nigor,
Ko'rsatib bir yo'l hilolin elni qurbon aylagach.

Furqat ul oshubi davron etmadi bir qatla yod,
Bizni rasvoyi jahon-u zor-u hayron aylagach.

* * *

Muhabbat domig'a ko'nglum giriftor ayladi
ul sho'x,
Qachonkim donai xolin namudor ayladi ul sho'x.

Xarobot ichra kelgach muhtasib ta'zir
etmoq-chun
Tutub bir jom ani ham masti idbor ayladi ul sho'x.

Qurubdur g'amza tiyrini qoching, turmang,
musulmonlar,
Chekib abr-u kamonin azmi bozor ayladi
ul sho'x.

Bo'lub pomol shamshod-u sanubarkim
xijolatdin,
Bu qad birla guliston ichra raftor ayladi
ul sho'x.

Raqibo, bo'lma xurram vasliga mahram
bo'lurmen deb,
Meningdek mubtalosin muncha afgor ayladi
ul sho'x.

Necha qon yig'lasam noz-u tag'ofuldin nazar
solmas,
Ko'zumcha ko'zi shum ag'yorni yor ayladi ul
sho'x.

O'tarda tuhfası birla yuzin har yona
to'lg'aydur,
Magar devona Furqatni ko'rub or ayladi
ul sho'x.

* * *

Ummati sargashtaman, yo Mustafo, aylang
madad,
Tutmadim sunnat yo'lin, ro'zi jazo aylang
madad.

Yo Abubakr, taqi siz yori g'ori Mustafo,
Umari odil ayni bosafu, aylang madad.

Yori sevvum jomi'ul Qur'on — Usmoni g'ani,
Shahsuvor ahli ato, sheri Xudo, aylang madad.

Xoki poyingiz erur toji sari har avliyo,
Shayx Muhyiddin mahbubi Xudo, aylang
madad.

Kulfate boshing'a tushti, turfa hojatmandman,
Yo Bahouddin vali, mushkulkusho, aylang
madad.

Dar Samarqand Shohi Zinda — hazrati Sayyid
Qusam,
Ibn Abbos sokini g'ori fano, aylang madad.

Ilgim oling, yo'lda qoldim, yo imomi
Shahrisabz,
Yana Xoja Imkana shayxi safo, aylang
madad.

Toshkandda Xoja Nuriddin ila Shayxantohur,
Ruhingizdin o'rgulay, Zangi oto, aylang madad.

Zokirjon Furqat _____

Qolmisham yo'llarda, shayxi Muslihiddini
Xo'jand,
Qotti boshim bekas-u berahnamo, aylang
madad.

Sizga mol-u jon tasadduq, mavlaviy Jomiy
pirim,
Manga yo'qtur sizdan o'zga muqtado, aylang
madad.

Shahri Xo'qand tavfgohi hazrati Shohi Jalil,
Yana Erhubbi, Qaroyozi oto, aylang madad.

Avliyoyi begumonsiz, Shayx Sulton Boyazid,
Ojiz-u darmondaman, bedast-u po, aylang
madad.

Qum aro Xoja Turob shayxi kibori fayzbaxsh,
Hazrati Boboi Afvporso, aylang madad.

Marg'ilonni saylgohi yo Ma'oz ibni Jabal,
Hazrati Mo'yi muborak ibtido, aylang madad.

Muflisi bechoraman, taxti Sulaymoni nabi,
Ahmad Arqam, Osaf ibn Barhiyo, aylang
madad.

Ahmadi Zumi vali, hazrati Salmoni Fors,
Jam'i as'hobi kibor peshvo, aylang madad.

Naynavo shahrida yotgan hazrati Yunus
nabiy,
Hazrati Idris Shayx Bob aro, aylang madad.

Hazrati Ayyub payg'ambar — Xudo suygan
quli,
Xastadilman, chashmayi doru-sh-shifo,
aylang madad.

O'zgandda Shayx Burhoni Qilichiddin yana,
Andijon mulkida Mirpo'stin oto, aylang
madad.

Sayyidi oliy nasab, hazrat mavlonoi Chisht,
Keldim ummid aylabon sizdin duo, aylang
madad.

Yo G'ulomi G'avs shayxi qodiriya, rahbarim,
Bo'ldingiz shahri Namangonda fano, aylang
madad.

Man nechuk qilg'um bu ko'tah til bila bir-bir
bayon,
O'tgan olamdin jami'yi avliyo, aylang madad.

Furqatiy yo'llarda qoldi, G'avsu-l-A'zam
dastgir,
Qo'l tutarga yo'q erur bir rahnamo, aylang
madad.

* * *

Iydkim xalqi jahong'a bordurur ro'zi said,
Dilbaro, har lahza bir ko'rmak jamoling
menga iyd.

Yangi oy ko'rgan kishini istagaylar iyd uchun,
Oraz ochg'ilkim, qoshing bir ko'rmak
aylarmen umid.

Shodlig'din ko'z yoshim tarqatti vasling
mujdasi,
Tifllar go'yo yugurgay iyddin yetgach navid.

Iyd ayyomi agar xursand qilmoq istasang,
Hajringa etma qariyb-u qilma vaslingdin
baid.

Xalqi olam iydi bir kunda tamom o'lg'oy, vale —
Orazing ko'rgach bo'lur har kun meni iydim
jadid.

Tug'madi davron anosi husn aro bir sen kibi
Nodiri asr-u vahidi dahr farzandi rashid.

Iyd mardumg'a agarchandi farog'at ro'zidur,
Furqatiy bero'zig'a sensiz erur
yavmush-shadid.

* * *

Yig'lamoqdin bir pari hajrida, ey ahboblar,
O'ng ko'zimdin oqdi qon-u so'ngidin
zardoblar.

Turrilig' zulfini yodini qilib butxonada,
Tushti tarsolarni zunnorig'a pech-u toblar.

Bexabar zohid sanamlar ishqig'a munkir
hanuz,
Qoshi qayg'usi bila xam bo'lsa ham
mehroblar.

Aybim etma, soqiyo, davron aro mast o'lmasam,
Sharbati la'lidek ermas bodai unnoblar.

Qatra-qatra ashkimi sochdim, g'amidin har
biri
Ishqning daryosidindur gavhari noyoblar.

Kecha tush ko'rdimki, zulfin tebratur erdi
nasim,
Qildi oshufta dimog'im bu parishon xoblar.

G'ayr ila yorim sharobi nob ichib, men
Furqatiy,
Rashk jomidin ichib tong otqucha xunoblar.

* * *

Ul qaro ko'z ko'zlariga surma bejo tortadur,
Balki andin dahr eli ortuqcha g'avg'o tortadur.

Qoshlari ostida go'yo ikki fatton ko'zlari
Ikki hindu bachchadurkim yondashib
yo tortadur.

Telbalanmish zulfini savdosidin devonalar,
Qayg'a borsa o'lturub yerg'a chalipo tortadur.

Jon ila ko'ngul taloshur, ey sanam, dard-u
g'aming,
Birni sol ko'nglumg'akim, jon birni tanho
tortadur.

Kokulingdan bo'y olgan bog'ning tuprog'idur,
Bog'bon sotmoqqa doim mushki soro tortadur.

Ne bilur Yusufki, noz-u husn ila mag'rurdur,
Ul qadarkim ishq dardini Zulayxo tortadur.

Ishqni pinhon tutarg'a bo'lma shaydo,
ey ko'ngul,
Mushk pinhon bo'lsa, bo'yi oshkoro tortadur.

Charxi kajraftorning bir shevasidin dog'man,
Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur.

Sorig' oltun kasrati ko'ngulni aylaydur qaro,
Chunki safro bo'lsa g'olib, o'zga savdo tortadur.

Bulhavaslar torta olmas nozaninlar nozini,
Furqatiydek bekas-u sho'rida, rasvo tortadur.

* * *

Muanbar xatlaringni bo'yi na mushki
Xo'tandandur?
Magar rayhoni jannat yerga tushgan o'lsa
andandur.

Labing yoquti nobidur va yo marjoni serobi,
Nechuk o'xshar anga la'li Badaxshon-u
Yamandandur.

Emas, jono, giriboningdagi dur tugmalar
rangi,
Munaqqash ko'ylagingni(ng) oqligi aksi
badandandur.

Uzoring bargi guldin nozig-u, xushrang,
xushbo'roq,
Bu yanglig' toza-u tar gulki, yo Rab, qay
chamandandur?

Bag'irga lablaring yodida to'lgan qonni
bo'htondin
Ko'zim ayturki: "Sandandur!", ko'ngul
ayturki: "Sandandur!"

Dubora ko'rmasun, har kim ruxingdin
benasib o'lsun,
Buzub qullig'ni ahdin kim agar paymon
shikandandur.

Zokirjon Furqat _____

Qachon loyiq labing shahdi xiradsiz
bulhavaslarga
Emas to'ti alar tab'i base zog'-u zag'andandur.

Olib nusxa bahori xil'atingdin bo'stonlarg'a,
Guli ahmar ruxingdin, g'unchasi durji
dahandandur.

Demakim: "Otmayin tiyri mijam, nechun asir
o'ldung?"
Asir o'lmog'lig'im, ey sho'x, chashmi
sehrfandandur.

Ravodur ko'zlaringdin parvarish topti desam
nargis,
Qadingning naxli bu gulshan aro sarv-u
sumandandur.

Jahon ra'nolarin o'zga giriftori g'ulom etting,
Bu xosiyat shakkarafshon fasohatlik
suxandandur.

Asar qilmas sirishkim mavji-yu ham tiyri
afg'onim,
Ko'zungning sehridin xoro dema, ruhi na
tandandur.

Nigini harfi isming xotamin nazmig'akim,
Furqat,
Qilibdur darj, ko'rganlar dedi: "Durri
Adandandur".

* * *

Umr qarori yo'q, chunon barq guzar o'tar-
ketar,
Dahr madori ham yana misli sharar o'tar-
ketar.

Umri aziz aqabidin tez borur dam-u qadam,
Qayda borurni bilmadim, shams-u qamar
o'tar-ketar.

Kecha tamom yotmagil, bori ulush olay
desang,
Toki qo'pay degunchalik fayzi sahar
o'tar-ketar.

Xayr muhayyiri o'lub aylama shar, bashar
esang,
Madh malomati qolur, xayr ila shar
o'tar-ketar.

Naf ko'ray desang, zarar ko'rma ravo
chibing'a ham,
Qilsang-u qilmasang agar naf'-u zarar
o'tar-ketar.

Faqr eli ko'rsa yuz alam, orqasidin tepib
borur,
Xayli hasham bila agar sohibi zar
o'tar-ketar.

Qon yuqi yuzlaringni pok ayla demonki
yosh ila,

Zokirjon Furqat _____

Girya qilur mahal yana xuni jigar o'tar-ketar.

Davri zamona munqalib, bo'lma malul kelsa
g'am,
Gulga shamoldin agar yetsa asar o'tar-ketar.

Yaxshini suhbatin ko'rub, yaxshi suxan eshitki
ul,
Yaxshi ko'rub eshitmayin ko'r ila kar
o'tar-ketar.

Qolmag'usi jahon aro hech kishi, Furqatiy,
yana
Sochsa agarchi nazmidin dur-u guhar
o'tar-ketar.

* * *

Sarv-u gulda yo'x tarovat qadd-u
ruxsoringdadur,
Na fasohat to'tida, nutqi shakarboringdadur.

Yusufi Misri malohatsen, jahon ahli hama
Naqdi jon qo'lg'a olib, bir umr bozoringdadur.

Dahrni, ko'b fitna qo'zg'ob, qon ila
to'ldurg'usi,
Buyla sehromuzliqkim chashmi
makkoringdadur.

Qaysi lof ishqingda urgan injimas javring
chekib,
Sabr-u toqat aylamoq mendek
jigarxoringdadur.

Urmason mashshota tor ochmoqqa beparvo
tarog',
Miskin etgan yuz ko'ngul shabrangi
tarringdadur.

Sen jafog'a moyil etding yorimi desam, falak,
Dedi: mendin ko'rmakim, zolimlig' o'z
yoringdadur.

Murdalarni yuz nafas birla Masiho turguzur,
Bo'lsa yuz jonbaxshlig' bir lafzi
guftoringdadur.

Zokirjon Furqat _____

Xo' b emas ahli muhabbatg'a jafodin injimoq,
Negakim, yuz lutf-u ehson har bir
ozoringdadur.

O'lsa bok ermas, ayog'ing ostida gulshan aro,
Xun bahoyi yuz chaman tovus raftoringdadur.

Nozparvar siymbarlar ko' b erur husn ahlidin,
Desa bo'lg'ay az qatori kafshbardoringdadur.

Ishq aro sho'ridai nokomlarning shevasi,
Furqatiy, oshifta hol-u siyna afkoringdadur.

* * *

Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar,
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushub shabnam, bo'ldi sabzalar
xurram,
Gul uza tomib kam-kam yog'di abri
naysonlar.

Nastaran yuvib yuzni, yosuman tuzib o'zni,
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshti olamg'a,
Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar.

Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon
chah-chah,
Sarv-u gul uza doim tortar oh-u afg'onlar.

Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon
faslin,
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul
giribonlar.

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutub savsan,
Kiydi ko'k, qilib sunbul zulfini parishonlar.

Kuymasun bu savdoda ne uchun
dimog'imkim,
Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.

* * *

Tavofi Ka'bag'a rahnamo bilan boramiz,
O'lumni chog'lab o'za, qazo bilan boramiz.

Murodi manzilig'a aylabon yana Miyno,
Umidi Marva istabon Safo bilan boramiz —

Ki, haj qilurda ko'p ermish sharoiti arkon,
Bajo etarg'a bir necha raso bilan boramiz.

Umid behad etib jurmimiz maofig'a,
Madina sorig'a bu muddao bilan boramiz.

Kelinglar, ahli muhabbatki, jon nisor aylab,
Mazori sheri Xudo — Murtazo bilan boramiz.

Ota-ona, qarindoshdin umidni uzub,
Imomi laxta jigardek rizo bilan boramiz.

Yaqoni chok etibon bu yo'lda qon yig'lab,
Imomi Husayn — shahidi Karbalo bilan
boramiz.

Kel emdi, Furqati bedil, turarg'a toqat yo'q,
Tavofi Ka'bag'a rahnamo bilan boramiz.

* * *

Biz istig'no eli, qichqirmog'on ma'vog'a
bormasmiz,
Agarchandiki xirman aylasa dunyog'a
bormasmiz.

Agar labtashna qolsak filmasal sahroyi
olamda,
Malolat zohir etsa, mavj uran daryog'a
bormasmiz.

Umid etgonimiz aksar saodat bo'tai Haqdin,
Agarchi mis erurmiz, qimmatillog'a bormasmiz.

Hamisha lof urarmiz xalq aro Farg'ona
mulkida,
Bag'oyat tab'imiz ozoda deb har jog'a
bormasmiz.

Havo loyig'a botgan moumanlik do'sti
xudbinkim,
O'shandog' kam zarofatmaskani a'dog'a
bormasmiz.

Biz ellar — faqr elimiz, parcha nong'a sabr
aylarmiz,
G'araz dunyo uchun Iskandar-u Dorog'a
bormasmiz.

Emasdur oncha asbobi jahong'a fikrimiz,
Furqat,
Vale ketguncha juz andishai fardog'a bormasmiz.

* * *

Ko'zlaring har go'shasi bir manzili ma'voyi noz,
Qoshlaringni xamligi ham boisi imoyi noz.

Fahm etib oshiqligim qilding itob uzra itob,
Angladim bu shevanikim, noz bar boloyi noz.

Ey jafopesha, tag'oful etganing yetmasmudi?
Dardimi afzun qilursen aylab istig'noyi noz.

Rashk jomidin ichib men go'shai hasratda qon,
Sen chekib ag'yor ila tun sog'ari sahboyi noz.

Nozaninlar noz inshosin azal kotiblari
Yozdilar, lekin seni noming uchun tug'royi noz.

O'zga mahvashlarga nozebodur istig'no to'ni,
Dilbaro, qaddingga loyiq xil'ati deboyi noz.

Oftobi orazing to'ldi shuo'i olama,
Bo'ldi zarroti jahon chun rog'ibi savdoyi noz.

Ey pari paykar, meni o'ldurduring istig'no qilib,
Ko'z uyina aylamay tashrif bir yo'l poyi noz.

Xo'blig' mulkidadursen bir amiri komron,
Husn taxtida na chog'lig' noz qilsang, joyi noz.

Gulshan ichra g'uncha erdi bosh chekib
bo'ldi xazon,
Tutmayin posi adab gul aylagach ifshoyi noz.

Umri qat' o'lsun ajal doril-qazosig'a borib,
Har parirol'kim qilur bo'lsa sengo da'voyi noz.

Hush naqdin bir tarafdin ko'zlaring toroj etib,
Buzdi bu ko'nqlumni mulkin ustina yag'moyi noz.

Qilsa sahroni vatan Majnun kibi Furqat,
Sen kibi Layli nigohindin erur shaydoyi noz.

* * *

O'rtanur tokay firoqing otashida jonimiz,
Jonimizg'a rahm qil bo'lsang agar jononimiz.

Sen kibi tovus paykar nega keltirsun xirom,
Chug'z qo'nmas ko'zga ilmay kulbai
vayronimiz.

Qayda bo'lsang gul yuzing yodida ul yerdur
bizi —
Bog'imiz, bo'stonimiz ham ravzai rizvonimiz.

Onqadar qilding jafo-yu javrlar, ey sho'xkim,
Oncha bor erdi chekarga qolmadi imkonimiz.

Nolamizdin kechalar gardun qulog'i bo'ldi
kar,
Ohkim, yetmas senga bir nola-yu afg'onimiz.

Seli g'am bedodidin yetdodimizga, adl qil,
Senki bordursen malohat mulkida sultonimiz.

Har zamon ko'z boshinga sursak agar bir
vajhi bor,
Ziynat ortar, kokulingga shonadur
mijgonimiz.

Turmayin ahdingda paymoningni sindurding
axir,
Na edi avvalda, Furqat, ahd ila paymonimiz.

* * *

Na bo'ldi, nigoro, biza aslo qaramaysiz,
Guldek ochilib, g'unchai humro qaramaysiz.

Yo o'zga kishilar siza so'z o'rgatadurmi?
Yo'qsa nega hech so'z demayin,
yo qaramaysiz?

Har kun o'tasiz to'ffini boshqa qo'yub egri,
Olifto bo'lub, muncha tamanno qaramaysiz?

Ko'rganda meni muncha shitob aylab o'tarsiz,
Bormu magar ul yona tamosho qaramaysiz?

Har shom-u sahar tinmayin afg'on
chekadurmen,
Bulbul qulingizga, guli zebo, qaramaysiz.

Xo'blar bila kelganda-ku mendin qilasiz or,
Endi o'zingiz yakka-u tanho qaramaysiz.

Furqat qulingiz misli gado yo'lda yotodur,
Bir lutf-u karam qilg'oli, shoho, qaramaysiz.

* * *

Sen kabi badmehrligni hech musulmon
aylamas,
Aylag'ay lekin jafo-u javr chandon aylamas.

Orazi xo'bingni har kim ko'rsa gulshan sayrida,
Orzuyi jannatul-firdavs-u rizvon aylamas.

O'ynasang chun lam'a hayron ko'zlarimda,
ey pari,
Jilvasin oyinai xurshidi raxshon aylamas.

Aylading jonimg'a bedod ustig'a bedodlar,
Dushmanig'a bu sitam hech nomusulmon
aylamas.

Iydi ruxsoring aro ikki hilolingni ko'rub,
Qandog' odamdurki, bir jonini qurbon aylamas.

Bodai la'li labingdin qatra no'sh etkan kishi,
Umr ichida yod hargiz obi hayvon aylamas.

Mahram o'lmay vaslinga ko'z yoshim o'ldi
beshariq,
Sensiz, e oromijon, naymancha afg'on aylamas.

Ketting ag'yor ila Yusuf tal'atim sahro sori,
Baytul-ahzon yo'lg'a mendek piri Kan'on
aylamas.

Vasl savdosig'a berdi Furqatij jon naqdini,
Ko'rmasa sude agarchandi, pushaymon aylamas.

* * *

Bo'lsa kim xilvatnishin, sayri chaman lozim
emas,
Uzlat etgan odamiga anjuman lozim emas.

Benavolarni ko'rub, ta'n etmang,
ey ahaboblar —
Kim, xarobat ahliga hargiz vatan lozim emas.

Bulbul ermas g'ordin gar oshyon etmas bino,
Chug'zi g'urbat bo'lmasa, baytul-hazan lozim
emas.

Qosir aqling birla sun'i Kibriyodin urma dam,
Bilmagan odamg'a bu nozuk suxan lozim
emas.

Laylivash bir dilbari ra'nog'a oshiq bo'lmasang,
Yurmagil behuda bul dashti mihan lozim
emas.

Ko'hi g'amni noxuni sabrim bila qazdim bu
kun,
Urma dam Farhoddin — ul Ko'hkan lozim
emas.

Furqato, ayg'il takabbur ahlig'a, Mashrab
dedi:
"Qatrai obi maniyg'a mouman lozim emas".

* * *

Vahm birla g'allani qimmatqilur hannotlar,
Ikki-uch kun to'qtamasdin yog'sa nogah
qor qish.

Shahr eli barcha yemoq-ichmoq balosig'a
qolur,
Kam bo'lub bay'u sharoi to'xtab qolur bozor
qish.

Uyda o'Itursang sovuqdin qaqshabon bu bir
balo,
Sandali birla o'choq aylar putung nokor qish.

Ko'chag'a chiqsang tiriklik boisi avqot o'lur,
Bu sovuqdin yetkurur joningg'a ko'b ozor
qish.

Har kishida bo'lsa ikki-uch nafar ahli ayol,
Daf'atandin uyg'a un, g'o'la o'tun darkor qish.

Issig' uyda bo'lsa asbobi maishat jo-bajo,
Chiqmasang tashqorig'a, desa bo'lur gulzor
qish.

Boqmayin bor-u yo'qingg'a sarf aylab
bo'lmaq'ay,

Yoz bo'lg'uncha qo'lingda dirham-u dinor
qish.

Na qilaykim, o'lturay desa sovuqni zo'ridin,
Erta oqshomda chiqar har ko'chag'a nochor
qish.

* * *

Orzu vasling qilurdim, bu xayol erkan g'alat —
Kim, sorig' yuz uzra to'kkan ashki ol erkan
g'alat.

Lablaringdin kom istab tobmadi hargiz javob,
Bilmamish devona ko'nglum bu savol erkan
g'alat.

O'qudim xatti labingni yuzlaring avroqida,
Til bila olsam yalab bir nuqta xol erkan g'alat.

Og'zing-u beling xayolida qilib ko'b guftugo',
Topmadi qavli asah, bu qil-u qol erkan g'alat.

Rashkdin gardun qilur har oy boshida ko'b
jadal,
Bilmag'ay yuz uzra qoshingdin hilol erkan
g'alat.

Muddaog'a yetmadi ko'nglum qushi parvoz
etib,
O'tgali daryoyi otashdinki, bol erkan g'alat.

Furqatiy mahzun, g'amingdin jona etti, ey
nigor,
Ishq oyinida rahm etkim, bu hol erkan g'alat.

* * *

So'rg'oli holimni, ey qoshi qalam, kel ertarog',
Yig'lamoqdin qolmadi ko'zlarda nam, kel
ertarog'!

Sendin ayru go'shai hijron aro yolg'iz topib,
O'rtag'a oldi meni dard-u alam, kel ertarog'!

Marhabo, bosh ustina, aylab karamlik
shahsuvor,
Ko'zlarimni ustina qo'yg'il qalam, kel
ertarog'!

Muddatedur dahr aro topmay vujudingdin
so'rog',
El aro anqo kabi bo'ldim adam, kel ertarog'!

Ey xush ul tunlar firoqing yodima kelmas edi,
Bilmayin komim visoli mug'tanam, kel
ertarog'!

Bistarim xoki mazallat, hamdamim anduhdur,
Hasratingda maskanim bo'lg'uncha g'am, kel
ertarog'!

Furqatiy, oshuftadil to chand tortar intizor,
Dilda toqat qolmadi, jonim-tanim, kel
ertarog'!

* * *

Ko'ngul qo'ymoq xatodur, husn ahlini(ng)
vafosi yo'q,
Xinoni rangi yanglig'dur, ketar bir kun, baqosi
yo'q.

O'shal mahvashki, olam xalqi ango
mubtalodurlar,
Va lekin men kabi onlar ichida mubtalosi
yo'q.

Ishonmanglar, musulmonlar, vafog'a va'dalar
qilsa,
Bular yolg'onchilardur, ahdini(ng) hargiz
vafosi yo'q.

G'arazgo' shum raqiblarni(ng) yurur
arqosidin istab,
Qochar andinki, ul ishqdin o'zga muddaosi
yo'q.

Falotuntab' gar ba'zi maqoma bexabar
bo'lg'ay,
Jahon ra'nolarini(ng) qay birini(ng) norasosi
yo'q.

Tag'oful birla ohista ketar har so', qaror etmay,
Zamone o'ltururg'a oshiq oldida rizosi yo'q.

Zamona xo'bro'sidin o'zingni qil badar, Furqat,
Agar yuz yil umr ko'rsang, bu yanglig' hech
mazosi yo'q.

* * *

Jannatni(ng) gullaridin gulzoringiz chiroylik,
Hur-u pari yuzidin ruxsoringiz chiroylik.

Ko'rganda qomatingiz bo'lg'oy xijil sanovbar,
Tovus jilvasidin raftoringiz chiroylik.

Har qancha aylasangiz kelmas malol hargiz,
Yaxshi erur jafongiz, ozoringiz chiroylik.

Har bir-biridan ahsan af'ol-u xislatingiz,
Kirdoringiz yarashgan, atvoringiz chiroylik.

Olma qizil yuzingiz, bodom erur ko'zingiz,
Ta'rifi anjiringiz, anoringiz chiroylik.

Furqat, ko'rib ko'ngullar bo'lmas nechuk
parishon?
Bellarda kokulingiz, tummoringiz chiroylik.

* * *

Chaman sahnida derlar sarvbirla yosuman
nozik,
G'alatdur qomating oldida guldan pirahan
nozik.

Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u ma-
lohat bor?
Fasohatda, sabohatda, hama to'g'rida san
nozik.

Falakni davrida ko'p davr kechti dahr zolidin,
Vujuda kelmadi aslo seningdek oq badan nozik.

Kalomingdin halovat topmog'i jonlarni
ondinkim,
Dahon nozik, zabon nozik, ki lab nozik, suxan
nozik.

Qoshing sarkashlik aylab, qon to'karg'a
o'ltirib erdi,
Nechuk bo'ldiki, bosh chekmish ko'zingga ul
chafan nozik.

Munosibdur seningdek andalibi jannatliy,
yo'qsa
Qachon bo'ldi jahon bog'ida har zog'-u
zag'an nozik.

Quling, Furqat, dilim dardini ko'p ifsho
qilolmasmen,
Ko'tarmas tab'i mavzuning, aning fikricha,
san nozik.

* * *

Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin
lolarang,
G'ozadin yuzlarda tob-u o'smadin qoshlar
tarang.

Za'faroniy ko'ylak uzra arg'uvoniy kamzihur,
Ro'ymol og'ushidin peshonani ahvoli tang.

Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok,
Qo'l bilakzukdin muzayyan, nuqradin og'izda
chang.

Gavhar osqon halqalar siymin banogo'shida
band,
Ko'rinur zulfi tunida subhi sodiqdek arang.

G'amza birla o'lturur, gah jilvalar birla yurur,
Turfa bir noz, ofarin, pur ishva tanoz-u
satang.

Aql-u hush eltar agar tursa, paridek silkinib,
Odamizod ichra ham mundog' bo'lurmu
sho'x-shang?

Yo'q qutulmoqlig' menga ul ofatijon dastidan,
Qasdima qoshlar kamon, payvasta mujgonlar
xadang.

Zokirjon Furqat _____

Ul parivash ishqidinki, telbadurmen, goh sog',
Chunki bordur oramizda goh sulh-u, gohi
jang.

Javrlarkim, Furqat, ul sho'xi jafajo' ayladi,
Muncha bedod-u sitam qilmas musulmong'a
farang.

* * *

Ne balolig' erdi, ey sho'xi diloru, surating,
Aqlimi lol etdi qilg'uncha tamosha surating.

Ketti bir ko'rgach ani sabr-u qarorim shevasi,
Ayladi toqat nechuk chekkanda tarso, surating?

Yoki Gulandom erursan, boz kelding dar vujud,
Ayladi Bahromdek bizlarni shaydo surating?

Sarvqadlar suratin chekkanda naqqoshi azal
Bir alif shaklida yozmish, qaddi zebo, surating.

Naqshi poyingni chekolmas erdi Chin
suratgari
Olg'usi mir'ot ila rus ahli qaydo surating?

Bu latofatlar bila borsa kalisog'a agar,
Qo'ymag'aymu bosh ayog'iga chalipo,
surating.

Turfakim tasviri la'ling murdalarg'a jon berur,
Yo'q erur, jono, ajab bo'lsa Masiho surating.

Kecha-kunduz jur'at aylab moh-u mehr
oyinasi
Bo'lmadi ko'rmoq ila mustag'ni aslo surating.

Furqatiy qosh-u ko'zing ayni tasavvur
aylagach,
Soldi g'orat ko'nqliga, jonig'a yag'mo
surating.

* * *

Nigori dilnavozim, dog'i hijron aylading
ketding,
Firoqing o'tig'a bag'rimni so'zon aylading
ketding.

Qadingni jilvapiro qilding ersa huri
jannatdek,
Hamani qumridek hasratda nolon aylading
ketding.

Asiri ishq bo'lg'onlar hammamiz yig'lashib
qoldik,
Muningdek hasrat-u g'am ichra nolon
aylading ketding.

Namoyon aylabon holing yurakka dog'lar
qo'yding,
Sen azmi hazrati taxti Sulaymon aylading
ketding.

Tabassum aylading guldek, takallum aylabon
ul kun,
Misoli g'unchadek bag'rim to'la qon aylading
ketding.

Safar qilding, shahanshohim, shukuh-u
saltanat birla
Quling Furqatni bu g'urbatda nolon aylading
ketding.

* * *

May ichibkim, g'amza tig'in obdor aylar
ko'zung,
Har nigohda yuz kishini dilfigor aylar ko'zung.

Xoling oshubi habash iqlimig'a yag'mo solib,
Fitnadin toroj mulki zangbor aylar ko'zung.

Aylamas toqat nigohingga agarchi bo'lsa tosh,
Ko'zguni siymob yanglig' beqaror aylar
ko'zung.

Raxna solib dahr aro qildi Haloku davrini
Qo'rqaman el qonidin suv jo'ybor aylar
ko'zung.

Xoki nochizi do'kon o'ldi javohir surmasi
Bir nazar solmayani bu nav' xor aylar ko'zung.

Oyyuzing uzra qoshing o'trusida Mirrix o'lub
Qavs burjida qironlar oshkor aylar ko'zung.

Tutmagan bo'lsa g'azabdin Shohimardon
shevasin,
Nega qoshingdin hamoyil Zulfiqor aylar ko'zung.

Nakhati zulfing ushotib nofai Chin qadrini
Ohui dashti Xo'tanni sharmsor aylar ko'zung.

Bazm aro gulrang mayi sen no'sh qilg'ilkim,
gahi
Furqatiyg'a bir boqib, raf'i xumor aylar
ko'zung.

* * *

Dilbaro, boshing uza chun toji sulton
kokulung,
Ganji husnungni qilur olamg'a ehson
kokulung.

Pech-pech o'lg'onda jonlar ichra tushti
pechutob,
To'lg'onib qildi ko'ngullarni parishon
kokulung.

Mordurkim chirmoshibdurmish qizil gul
shoxiga,
Sarvqadding birla yokim guli pechon
kokulung.

Xolu abro' bir taraf sabr-u qarorimni olib,
Ayladi gajjak bila aqlimni hayron kokulung.

Ochti toridin gireh oyo sabo mashshotasi,
Mushkbor etti jahonni anbarafshon kokulung.

Ko'zlaring yag'mosidin olamg'a tushti
fitnalar,
Necha odamlarni qildi xonavayron kokulung.

Bosh qo'yub ajdar kibi yotur jahong'a o't
sochib,
Aylagandek ganji husnung munda pinhon
kokulung.

Shonadin zahmat yetar ochsam gireh
mujgon ila,
Gul kibi nozik erur mushk ila bu kon
kokulung.

Ko'zlaring nargis, yuzing gul, qufli
rayhondur xating,
Misli sunbul har tarafg'a bo'ldi larzon
kokulung.

Yig'latib g'am dashtida bul Furqati devonani
Oqibat bag'rig'a soldi dog'i hijron kokulung.

* * *

Yuz-u zulfing furqatidin, ey diloromim
mening,
Yig'lamoqlig' birla kechgay subh ila shomim
mening.

Yo'q erur osoyishim holing g'amidin
kechalar,
Naylayin talx o'lsa bu taryokdin komim
mening?

Xoki poyini fidosi jon o'shal qosidnikim,
Yetkurur bo'lsa janobingg'a bu payg'omim
mening.

Za'flik jismim, ramaqda jon, o'lar holatdaman,
Tobakay hajringda kechsun buyla ayyomim
mening?

Aylading azmi safar, qoldim agarchi termulub,
Sen bila ketdi barobar sabr-u oromim mening.

El gumon aylarki: no'shim bodai gulrang erur,
Yo'q, labing yodida to'lmish qon ila jomim
mening.

Nega bulbuldek fig'on-u qumridek chekmay
navo,
Sendin ayru, Furqat, ey sarvi gulandomim
mening.

* * *

Keldi hajr anduhi birlan og'zima jonim mening,
Bir tarahhum aylamas ul sho'xi jononim
mening.

G'unchadek la'li firoqida bahori ishqida
Qildi ul gul xun dilimni xori mijgonim mening.

Notavonman oncha ul bemor ko'zni yodida -
Kim, ko'zum ochmoqqa yo'q bir lahza
darmonim mening.

Tegmasa qabrimga gardi domani ba'd az vafot,
Tegmagay to subhi Mahshar yer aro yonim
mening.

Ul pari majnunlig'img'a bovar etmas garchikim,
Tifl toshidin usholur jismi uryonim mening.

O'ldurub tashlang ani ko'yig'a, ey ahboblar,
Itlari tirnog'ig'a bo'lsun xino qonim mening.

Ul sitamgar ishqida naylayyaqo chok aylamay,
Bo'lsa oluda balo loyig'a domonim mening.

Roziman o'lsam mazorim sori bir aylab guzor,
Desakim: ushbu shahidi tiyri mijgonim mening.

Qo'ymadi ko'zg'a ayog'in notavon ko'nglum uchun
Ko'z bila ko'nglumda, Furqat, qoldi armonim
mening.

* * *

Meni, ey gulruxim, bulbuldek afgor aylading,
qo'yding,
Ishimni kecha-kunduz nolai zor aylading,
qo'yding.

Labing shirinlig'idin nuktai pinhon edi,
so'rdim,
Tabassum qilding-u bu sirni izhor aylading,
qo'yding.

O'shal kun lutf etib, vaslingg'a yetkurding
meni oson,
Firoqing birla holim emdi dushvor aylading,
qo'yding.

Jamoling xirmanida donai xolingni ko'rguzding,
Ko'ngul murg'ini zulfingg'a giriftor aylading,
qo'yding.

Qilib shirin adolig', har kima boqding kulib,
jono,
O'zingga oshiq oni, manga ag'yor aylading,
qo'yding.

Viloyat ichra solding halqai zulfingdin ovoza,
Junun ahlini holimdin xabardor aylading,
qo'yding.

Nigoro, xastai Furqatni mahjuri visol aylab,
Ko'zi ko'zqusini mushtoqi diydor aylading,
qo'yding.

* * *

Firoqing birla, ey zolim, necha bag'rimni qon
qilding,
G'aming birla yana ko'z yo'llarin obi ravon
qilding.

Vafo ko'z tutmagil hargizki juz g'addorliq yo'qdur,
Falakni umrlardur, ey ko'ngul, ko'p imtihon
qilding.

Ko'zimning maktabidin tinmayin, ey tiftl, ashk
oqar,
Sabab na erdi hayrat darsini muncha ravon
qilding.

Rafiqo, ne edi maqsad jahona kelmagingdinkim,
Ketarda na ayon mohiyatingni, na nihon qilding.

Tiriklik hosili shuldur, buzulmas deb gumon etma,
Ajal torojidin, oqil, havasdin xonumon qilding.

Degil bo'lmas agar doim muroding mug'bacha
husni
Nechun dayr ichra, Furqat, xizmati piri mug'on
qilding.

* * *

Yuzlaringdin sharm etib gulshanda, ey ruxsor
gul,
Ko'rinur har yil bahor ayyomida bir bor gul.

Vahki, solmish o'zini yo'lingg'a poyandoz
etib,
Qo'y qadam, gar jon-u dildan bo'lsa
minnatdor gul.

Lab - gul, oraz - gul, badan - gul, jabha - gul,
bir naxldin,
Ey, vujuding gulshanida bor bu miqdor gul.

Dahr gulzorida ko'p gullarni ko'rdi el vale —
Ko'rmadi sendek latif-u nozik-u bexor gul.

O'lmog'onmudi xijolatlar chekib o'tgan bahor,
Boz bosh chekmish, uyatmasdin, ajab beor gul.

Shul edi bu jurmig'a loyiq jazokim, bog'bon,
Bog'lab aylanturdi chandon ko'cha-u bozor gul.

Xil'atingdin, bo'lsa ozurda, ne tong, nozik
taning —
Topqusidur, qorag'il, o'z bargidan ozor gul!

Etmadi qat'i nazar el orazingdin garchikim,
Oyati hub g'unchasidin topti yuz tumor gul.

Nega boqsun gul yuziga, gul yuzingsiz Furqatiy,
Chunki bordur ul tikancha, bo'lsa yuz gulzor
gul.

* * *

Fig'onkim, ul buti siymin zaqandin ayrilib
qoldim,
Malohat bog'ida sarvi chamandin ayrilib
qoldim.

Dimog' oshuftau xotir parishon-u ko'ngul
g'amgin,
Xat-u xol, kokuli mushki Xo'tandin ayrilib
qoldim.

Meni holimg'a har dam, ey malohat ahli,
kulmanglar,
Bu hola tushmayinmu gulbadandin ayrilib
qoldim.

Girehlar rishtasi jonimg'a tushti ne iloj aylay?
Ochilmas emdi zulfi purshikandin ayrilib
qoldim.

Jununi qo'zg'odi el ichra Majnundin batar
bo'ldim,
Nigorim Layli ruxsorimki, andin ayrilib
qoldim.

Ichib zahrobai hijron ajoyib talxkom o'ldum,
Takallum chog'ida shirinsuxandin ayrilib
qoldim.

Ko'zum a'mo bo'lub, Ya'qubdek qon yig'lasam
arzir,
O'shandog' Yusufi gulpirahandin ayrilib qoldim.

Zokirjon Furqat _____

Navo bulbul kabi cheksam, fig'on qumridek,
ayb ermas,
Yuzi gul, qomati sarvi chamandin ayrilib
qoldim.

Quyundek po'ya aylarman biyobonda
qarorim yo'q,
O'shal dilbar uchun, Furqat, vatandin ayrilib
qoldim.

* * *

Ohkim, yo'qtur meni tab'imga loyiq ulfatim,
Anga izhor aylasam ko'nglumda dog'i hasratim.

Bo'lmadim bir lahza forig' bu jahon
tashvishidin,
Naylayin qon yig'lamay ortar damodam
mehnatim.

Men nechuk ko'rgum bu dunyoda dame
xursandlik?
Dard-u g'am bo'lg'on esa ro'zi azalda qismatim.

O'tti umrum kecha-kunduz yuz tuman
andishada,
Dam-badam oyinadek ortib o'zumga hayratim.

Nuktalarkim mendadur, andin kishi olim emas,
Fosh o'lur aqsomdin nochor harfi illatim.

Yig'lasam ayb etmangiz, ey do'stlar,
qadrimg'akim,
Oshnolar oldida bir pulcha yo'qtur qiymatim.
Ko'b jadal qildim, birodarlar, ko'ngul topmoq
uchun,
Hech maqoma yetmadi qilg'on tamomi
g'ayratim.

Hol agar ushbu erur buyla tiriklikdin na sud?
Bo'lmasa bir qatla as'hobi jahong'a hurmatim.

King'a urdum oshnoliq lofini ixlos ila,
Bo'ldilar begona, Furqat, berdi oxir zillatim.

* * *

Ishqingda kuyub, jono, xoki tahi po bo'ldum,
Sovurdi g'aming bodi, alqissa, fano bo'ldum.

Har kecha talab aylab dargohi ilohiydin
Oftobi kamolingni, mashg'uli duo bo'ldum.

Yuz jahd-u jadal birla vaslingg'a yetushganda,
Ming kohishi g'am birlan, naylayki, judo
bo'ldum.

Hasratki, falak kajravkomimni ravo etmas,
Topmay chu iloj anga hasrat bila to bo'ldum.

Sendin dame, ey dilbar, ayrilgani toqat yo'q,
Gardunni jafosidur bu g'amda ado bo'ldum.

Jon-u dilim ayturlar bir-birga vido'ini,
Sen birla ko'ngul qoldi, jon ketsa rizo bo'ldum.

Maqsuda yetib erdim, ne hodisa ro' berdi?
Hayrat bila yakbora andin guzaro bo'ldum.

Hijronda qo'yarmusen oshiqni xarob aylab,
Vaslingg'a qariyb etgil, ko'b bag'ri ado bo'ldum.

Furqatni qulumsen deb bosti ko'zima muhrin,
O'zga yuza boqmoqdin bil-kulli sivo bo'ldum.

* * *

G'aribi bu viloyat xonumonidin adashganman,
Basoni murg'i vahshiy, oshyonidin adashganman.

Chekib bulbul kabi afg'on saharlar yig'lasam
yo'q ayb,
Bahor ayyomi o'tti, bo'stonidin adashganman.

Azizim, murshidim, ham rahbarim, toji sarim —
boshim,
O'shal sohibkaramlik xonadonidin
adashganman.

Kezib dashti muhabbatni, so'rog'i do'stni
topmay,
Adam anqosidek nom-u nishonidin
adashganman.

Qolib sargashtalik sahosida hayron-u
sargardon,
Ulug' dargohlarni(ng) ostonidin
adashganman.

Tirikman el ko'zig'a shunchalik ruhi ravonim
bor,
Vagarna holi surat, tanda jonidin
adashganman.

Boshimg'a tushdi g'urbat oftobi naylayin,
Furqat,
Falakni(ng) gardishidin soyabonidin
adashganman.

* * *

Ohkim hamdard yo'q, dard oshkor aylay
desam,
Yozg'ali sharhi g'amimni g'amgusor aylay
desam.

Vahshatim eldin bukim, vahshiydin
o'lg'aymen malul,
Vahshilardek gar maqomim ko'hsor aylay
desam.

Ixtiyorim buki, el qo'yimas g'arib ahvolima,
O'tlug' ohim kechalar sham'i mazor aylay
desam.

Bog' ila sahro ko'nguldin aylamas g'am raf'ini
Sayri gul, yor ila sayri lolazor aylay desam.

Yorsiz tarki diyor aylab edim, ahboblar,
Bor diyor-u yor yo'q, azmi diyor aylay desam.

Vahki, bir mushkulpisand ishqig'a
bo'lmishman asir,
Bo'lmag'ay manzur jon naqdin nisor aylay
desam.

Ul parivash zulfining savdosidin devonaman,
Turgali bir yerda imkon yo'q, qaror aylay
desam.

Kecha elki nolai beixtiyorimdin malul,
Tarkig'a yo'q ixtiyorim, ixtiyor aylay desam.

Dildagi dog'imni, Furqat, loladek ifsho qilur,
Qatra-qatra qon yoshim jo'shi bahor aylay
desam.

* * *

Alamlik qumriman, bir gulbadandin ayrilib
qoldim,
Nazokatda qadi sarvi chamandin ayrilib
qoldim.

Qafas baytu-l-hazan, Ya'qubdek qon yig'lasam
arzir,
O'shandog' Yusufi gulpirahandin ayrilib
qoldim.

Xati rayhon, sochi sunbul, labi g'uncha, ko'zi
nargis,
Qabo gul, ko'ylagi bargi sumandin ayrilib
qoldim.

G'amida telbamen, oning uchun zanjir
bo'ynimda,
Nigorim, Layli atvorimki, andin ayrilib qoldim.

Agar hijron qarong'usida yig'lab yotsam ayb
ermas,
Jamoli nuri sham'i anjumandin ayrilib qoldim.

Qaro toshlar urub ko'ksimg'a, faryod aylasam
kamdur,
Tishi durru labi la'li Yamandin ayrilib qoldim.

Misoli zar agar sorg'orsa ruxsorim ajab
qilmang —
Ki, ul donish iyori siymtandin ayrilib qoldim.

Zokirjon Furqat _____

Menga yuz qo'ydi emdi hasratida talxkom
o'lmoq,
Halovatso'zlari, shakkar shikandin ayrilib
qoldim.

Par-u bolim to'kildi, maskanim oxir qafas
bo'ldi,
Muhabbatyo'lida, Furqat, vatandin ayrilib
qoldim.

* * *

Ey musaffo nuktalar zehning safosidin, begim,
Diydai ma'ni yorub fikring ziyosidin, begim.

Jilvagardur mehr-u mah tokim falakni
davrida,
Tug'magay sendek o'g'ul davron onosidin,
begim.

Mahdi izzatda eding-u doya noz erdi sango,
Tarbiyat aytab jahon nozik adosidin, begim.

Bor eding andoq najobat bo'stonining guli,
Parvarish topqon sharaf ob-u havosidin,
begim.

Shah hayoti durjida bir dur eding, bo'ldung
yatim,
Qadring oshdi dahr atab qo'yg'on bahosidin,
begim.

Sho'bada izhor etib nogoh charxi hiylasoz,
Boshladi afsun ila makr-u dag'osidin, begim.

G'unchai davlatni gul yanglig' parishon
ayladi,
Tundbodi hodisoti mojarosidin, begim.

Oxirulamr hukumat gulshani bo'ldi xazon,
Keldi zog'u qoldi bulbullar navosidin, begim.

Odam o'g'li yo'q erurkim, arasai olam aro,
Bo'lmasa ozurdadil davron jafosidin, begim.

Zokirjon Furqat _____

Kimsa mehr ushbu jahondin ko'rdi kim, ko'z
tutqomiz,
Bu jahon ichra jahon ahli vafosidin, begim.

Mango qilg'on zulmini ko'rg'ilki o'yla bor
edim,
Sen kibi shahzodani xayli gadosidin, begim.

Ayladim tarki diyor-u yor agarchandi hanuz,
Bo'lmadim hargiz xalos oning balosidin,
begim.

Qong'a bag'ri g'ussadin g'urbatda
to'lmasmu kishi
Xalq ila ayrilsa, xesh-u aqrabosidin, begim?

Bistari za'f uzra tushtum notavonlig'din oxir,
Oh, hijron ishtidodi, ibtilosidin, begim.

Ko'z yo'lidin oqti ashk o'rnig'a ushbu
g'ussadin,
Qon ila zardoblar bag'rim yarosidin, begim.

Jonsipor-u qadrdonlig'din bajuz bir tuhfa
yo'q,
Hazratingga Furqatiy xolis duosidin, begim.

Soyai Tangri nasib etgay sani boshingga ham,
Zoyil o'lmas bobaqo davlat humosidin, begim.

* * *

Yuz-u qadding ko'rub, jono, chamanda,
Asiring bo'ldi gul, shamshod — banda.

Soching sargashtasi mushki Xitodur,
Ko'zung ovvorasi ohu Xo'tanda.

Malohatkim, seni yuzingda ko'rdum,
Na bordur gulda bu, na yosumanda.

Labingni yodida qonlar yutubon,
Yotibmen bir g'arib baytulhazanda.

Na xushtur bir tuni, ey dilnavozim,
Ikovbo'lsak edi bir pirahanda.

Nigorim, ko'rmadim sendek parivash,
Xudo haqqi, qalamravi Xo'qanda.

Meni kokullaring savdoyi qildi,
Nechuk turgum kelur emdi vatanda.

Tishing durri jahon bahrida bo'lmas,
Labingdek la'l yo'q mulki Yamanda.

Yurubmen hasratingda munda yig'lab,
Kezarsen aysh ila ishratda anda.

Quyundek, Furqatiy, kezdin jahonni,
Ajab sargashtamen dashti Xo'tanda.

* * *

Umr xush o'tmas bahor ayyomi sahro bo'lmasa,
Lolazor ichra bisoti aysh barpo bo'lmasa.

Hosil o'lmas boda-u jom ila miynodin murod,
Jilvagar to soqiyi gulchehra ando bo'lmasa.

Bazm ahli bo'lsalar mayxoralar anda zarif —
Dardi yo'q ag'yor o'shal majlisda aslo
bo'lmasa.

Dahr gulzorida xushdir yaxshi ta'miri bisot,
Gar xazondin gardi hodis anda paydo
bo'lmasa.

Obihayvon birla umri jovidonni ne qilay
Bir xati Xizru labi la'li Masiho bo'lmasa.

Xok bo'lsun ul tanekim, ishq o'tida kuymasa,
Zeripo bo'lsun sarekim, anda savdo bo'lmasa.

Furqat aylar orzu bu anjumanni har bahor,
Odam ermas har kishida bu tamanno bo'lmasa.

* * *

Vafo aylab yiroqdin oshkor ohista-ohista,
Bir ishqim aylading, jono, hazor ohista-ohista.

Na yaxshi marhamatlar aylamishsan nomada
izhor;
"Muhabbat rasmi qilg'il" deb shior ohista-ohista.

Jadal birla kishi maqsudig'a yetgan emas, ore,
Bo'lur vaqti bilan har nav' kor ohista-ohista.

Nechuk toqat qilaykim, bora-bora zo'r etib
ishqing,
Ko'nguldin oldi sabr ila qaror, ohista-ohista.

Berib taskin ko'ngulg'a: vasliga bir kun
yetarman deb,
O'zimni o'rgatay hajringa, yor, ohista-ohista.

Parishon o'lmayin to, xotiringni jam' qil, jono,
So'rub holimni xat birlan biror ohista-ohista.

Nechuk osoyish aylay, ey ko'ngul oromikim,
sensiz
Bo'lub borur jahon ko'zimga tor, ohista-ohista.

O'shal kun bir ko'rib qolganda qilgan novaki
g'amzang
Hanuz aylab kelur ko'ksim figor ohista-ohista.

Visoling bodasidin qilmasang shodon Furqatni,
Xarob aylar ani hajr-u xumor ohista-ohista.

* * *

Termu tobi bodadin ruxsori ahmar ustida?
Qatra-qatra yoki shabnamdur guli tar ustida?

O'smaliq qoshlarmu yo shamshir qondin
zangliq?
Yoki pistoqi to'kulmish rangi ahzar ustida.

Yuz uza kokilmudur har sori pechutob ila?
Ganji husningmu yotur yo ikki ajdar ustida?

Chehra ochtingmu bu tadbir-la chamanda
toldilar,
Xasta bulbul gul uza, qumri sanovbar ustida?

Xoki poyingni taloshur ko'zga el surmoq
uchun,
Ore, har yerda hujum aylar gado zar ustida.

Ikki jodu nargising solg'ay jahong'a fitnalar,
Bo'lmasa uryon qoshingdin ikki xanjar ustida.

Nozanin, sen tashla istig'noni, xud bori garon,
Noz debosi nazokat xulq paykar ustida.

Furqatiy qosh-u ko'zingdin fitnalar ko'rди, bali!
Sho'rish o'lmoq rasmdur oy tug'sa axtar ustida.

* * *

Bir qamarsiymoni ko'rdum baldai Kashmirda,
Ko'zlari masxur-u yuz jodu erur tasxirda.

Zarra-zarra zar sochar boshig'a har kun oftob,
Subh kelgach, kecha yotib chashmai iksirda.

Bir ko'rib chohi zaqan Horut ila Morut ikov,
Chohi Bobil ichra qolmishlar bo'lak tadbirda.

Lam'ai qiyg'och ko'zidin aning barqi nigoh,
Tezlik javharlari gar bo'lsa har shamshirda.

Qoshi uzra xolining asroridin bir nuqtadur,
Surai Nun o'qudim payvasta har tafsirda.

Forig' ermas hech kim ul dilraboning ishqidin,
Zulfiga dilbastalig' har bir juvon-u pirda.

Aydim: "Ey, jon ofati, zulfinga bo'lmishman
asir!"

Aydi: "Bu savdoni qo'y, umring o'tar zanjirda!"

"Nuqta lab ustida bejodur", — dedim, aydi
kulub:

"Sahvqilmish kotibi qudrat magar tahrirda?!"

Aydi: "Ey bechora, qilding na uchun tarki
vatan?"

Man dedim: "G'urbat-da, Furqat, bor ekan
taqdirda!"

* * *

Har kecha ishqingda, jono, ko'zlarim qon
yig'ladi,
Lola qon yutti-yu ohuyi biyobon yig'ladi.

Kechalar anjum emas, yerga to'kilgach,
onqadar,
Rahm etib, holim ko'rub garduni gardon
yig'ladi.

Abri boron ermas erdi ul bahor ayyomida
Ro'zg'orim sangdil baxting'a chandon
yig'ladi.

Yuz ila ko'zing g'ami ovvora qildi nechakim,
So'zishimdin o'rtanib sham'i shabiston yig'ladi.

Keldi qosid, ko'rdi sarg'org'on uzorim
hajridin,
Nomani bermasdin avval tortib afg'on yig'ladi.

Yozdi, har lafzin o'qurda qon bo'lub oqti jigar,
Ko'nglum o'rtandi, bag'ir ezdi, hamon jon
yig'ladi.

Sochrag'on sahni falakka har taraf ermas
shafaq,
Furqatingda qon sochib shomi g'aribon
yig'ladi.

* * *

To so'zga lab uyurding, jono, shakar to'kuldi,
Ham aylading tabassum, mavji guhar to'kuldi.

Oyinayi jamoling qandog' safolig' erdi —
Kim, anga bir boqishda yerga nazar to'kuldi.

Shohona sayr qilding raftor ila chamanda,
Gullar shukufasidin boshingg'a zar to'kuldi.

Kelmoqqa va'da berding, qon qildi intizing,
Yettim yaqin o'larg'a, kelkim, jigar to'kuldi.

Nozik belingdin og'ush etmoqqa ne hadim
bor?
Gustox agarchi quchmaybandi kamar to'kuldi.

Dod ilkidin firoqing, vasli yuzin ko'rolmay,
Yig'lab sirishki qolmay, nuri basar to'kuldi.

Xuni dil ila yozgan nomamni har kabutar
Bolig'a bog'lagan chog' kuydi-yu par to'kuldi.

Ol etti orazingni may tobi bo'stonda,
Andog'ki nastarang'a gul bargi tar to'kuldi.

Nash'a xumori g'amdin yo'q o'zga Furqat,
oyo,
Mayxonai azaldin jomi qadar to'kuldi.

* * *

Qilmag'aydim senga ul kun oshnolik, koshki,
Yona ko'nglum qilmog'oydi mubtalolik,
koshki.

Oshiq o'ldum bilmayin men dilfigori notavon,
Bori bildim qilmasayding bevafoqlik, koshki.

Bevafoqlik aylabon oxir judolik aylading,
Sen judo bo'lg'uncha qilsa jon judoliq,
koshki.

Ketti qo'ldin domani vasling nega qon
yig'lamay?
Tushmagaydi boshga bul motamsarolik,
koshki.

O'lturub men zorni, ul shum raqibni tirguzur,
Qilmasa la'ling bu yanglig' jon fizolik,
koshki.

Sochlaring savdosidin ko'b ro'zg'orim
tiyradur,
Tegsa erdi oy yuzindin ro'shnolik, koshki.

Qoldi Furqat furqating dashtida sargardon
bo'lub,
Xizri vasling qilsa erdi rahnamolik, koshki.

* * *

Ohkim, rahm aylamas holimg'a jononim meni,
Kuydi bu hasrato'tida kuymagan jonim meni.

Yig'lamaymu go'shai zulmataro tong otqucha,
So'rmasa bir tun kelib sham'i shabistonim
meni.

Boshima savdo tushub, oshuftahol o'lmay
netay,
Jilvagar bo'lsa o'shal kokul parishonim meni.

Orazi gul, zulfi sunbul, ko'ylagi bargi suman,
Xil'ati ra'no, bo'yi zebo gulistonim meni.

Garchi o'ldim ishqida bir zarra parvo aylamas,
Ul tag'ofulpesha, istig'nochi xoqonim meni.

Ey musulmonlar, iki kofir ko'zi bedodidin
Qolmadi jon-u ko'ngulda sabr-u somonim
meni.

Quvlog'ondin ko'yida o'lturg'oy erdi,
koshki —
Ostonig'a to'kulsa bir qoshiq qonim meni.

Dardima bechoralig'din chora qilmasmudi,
Bo'lsa erdi Toshkandda bir qadrdonim meni?

Furqat, ul mahvash firoqida etar gardun sari,
Kechadin to subh chekkan oh-u afg'onim
meni.

* * *

Elga keldi to bahor ayyomi gar bo'ston isi,
Yoz ko'yidin kelur menga guli rizvon isi.

Gul isin istab hamisha bormog'um, ahboblar,
Yetkurur har dam mashoming'a sabo
jonon isi.

Ul sanam qayda ochib yuz, xat namoyon
aylasa,
To qiyomat kelgay ul yerdin gul-u rayhon isi.

Gul xazon etmoqqa kelsa bog' aro bodi
samum,
Bulbuli dilxastag'a andin kelur hijron isi.

Ul sitamgar dardi ishq'i bag'rim ezdi
onchakim,
Yig'larimdin yer yuzini tutdi oxir qon isi.

Kimga bersa mohro'yim mujdasin hijron tuni,
Sonuram andoqki ul berdi o'lukka jon isi.

G'ussadin qon yutmayin naylay, jahon
gulzoridin
Topmasam, sho'rida Furqat, bir guli
xandon isi.

* * *

Yuzidek gul, qadidek sarvtopmaydahr gulzori,
Nadomato'tig'a sarvu gulini yoqti chun xori.

Yonib dud o'ldi anbar ud yanglig' xoli
shavqidin,
Xatidin yona sargashta Xitoda mushki totori.

Nechuk men kulbai hasratda doim intizor
o'lmay?
Ko'zum oyinasida jilvago'star erdi diydori.

O'shal mahdin ayirgoch ro'zgorimni qaro
qildi,
Ilohiy, qora o'lsun izzatetsa qora ruxsori.

Raqibim do'na-do'na bahravar mehr-u
vafosidin,
Meni mahjura ortar lahza-lahza javr-u ozori.

Sulaymon surmasidin bo'lsa hosil to'tiyoliqqa,
Ko'zung'a surmag'aymen, juz g'ubori tahti
devori.

Visoli davlatig'a kimki mendek shukr
etmaydur,
Mudom o'lsun quyundek dashti Furqatning
giriftori.

MASNAVIYLAR

NAG'MA VA NAG'MAGAR VA ANING ASBOBI VA UL NAG'MA TA'SIRI XUSUSIDA

Xirad go'shin qiling, ahboblar, boz,
Qilur kilkim nayi bir nag'ma og'oz.

Yeturub bir payomi nag'ma sizga,
Bayon aylay maqomi nag'ma sizga.

Na yerda nag'malik bo'lsa tamosho,
Qilur manzuma birla oni insho.

Tamosholarki, avval necha yozdim,
Gazet birla ani sizga chiqozdim.

Xusus ikki tamosho avval, oxir,
Biri nag'ma, biri erdi teatr.

Yana necha tamosholarni ettim,
Ajoyib nag'malarni ko'p eshittim.

Ekandur nag'mai Rusiya digar,
Ani asbobi ham g'ayri mukarrar.

Mug'anniy aylasa gar nag'ma og'oz,
Chi qar har qaysidin bir boshqa ovoz.

Eshitmoqqa hama xomush o'lurlar,
Base lazzat topib behush o'lurlar.

Musulmon ichra lekin nag'ma ko'p bor,
Chunonchi gijjak-u tanbur-u setor.

Dutor-u arg'anun, qonun ila rud,
Rubob-u doira, chang-u nay-u ud.

Vagarna ko'p erur nag'ma maqomi,
Erur "Matla'"da mazkur oni nomi.

Na sud ammoki yo'q ustodi komil,
Emas ta'limi ham oning taomil.

Agar bo'lsa raso nag'ma kamoli,
Uchar qushlar — tushar, bor ehtimoli.

Nasim ohista to'xtab go'sh tutqay,
Chaman sayrini bilkulli unutqay.

Eshitsa bog' aro qumri-yu bulbul,
Ikov ko'nglig'a tushkay sho'r-u g'ulg'ul.

Misoli buldur andog' nag'malarni,
Kumushlik suvlaridek chashmalarni.

Tagini mayda tosh tutgang'a o'xshar,
O'shal toshdin sekin o'tgang'a o'xshar.

Va yo daryoni bir mavji latifi,
Havo birla bo'lur chunkim radifi.

O'shal daryoni mavjidur tabassum,
Qatig kulgusi qilg'onda talotum.

Aningdek nag'malar ham jo'sh aylar,
Tabassumdek gahi xomush aylar.

Mug'anniy nag'ma birlan qil-u qolin,
Xususan bildirur har nav' holin.

Biror odam agar g'amboda bo'lsa,
Va yo g'am qaydidin ozoda bo'lsa.

Va yo bo'lsa o'shal kulfat kashida
Tiriklikdin sami mehnat chashida.

Va yo bad tole'idin bo'lsa g'amnok,
Va yo iqboli pastidin alamnok.

Va yo bo'lsa dilida sho'ri motam,
Bo'lub ul sho'r ila ranjuri motam.

Va yokim bo'lsa anda shodmonliq,
Falak davrida topib komronliq.

Va yo bir dilrabog'a oshiq o'lsa,
Anga na so'z degoni loyiq o'lsa.

O'shal ahvolni aylab bayon ul,
Qilur majlisdagilarg'a ayon ul.

Dilida har na so'z o'lsa nihoniy,
Degay nag'ma zaboni birla oni.

Eshitganlar ani holin bilurlar,
Bag'oyat nash'alar hosil qilurlar.

O'zing'a tushti bir kun ushbu ahvol,
Bor erkan nag'ma oning oti royol.

Eshittim bir qiz anda bahri hojot,
Qilur nag'ma tili birla munojot.

Hazin ovoz ila yig'lab Xudog'a,
Karam qil der meni bag'ri adog'a.

Maqomini qilur har nav bunyod,
Gahi qattig' fig'on, gah narm faryod,

Gahi naydek chekar ohista nola,
Keturur goh navo mashqin xayola.

Mango ul nag'ma andoq qildi ta'sir,
Jigardin o'tti go'yo tez bir tiyr.

O'shal dam bo'ldi holotim digargun,
To'lub toshti yurak monandi Jayxun.

Ko'ngul erdi agarchi sangi xora,
Erib ko'zdin sirishk urdi favora.

Mango mustavli o'ldi girya ul dam,
Giribon o'ldi ko'z yoshim bila nam.

Man anda bildim ul ko'ngulni holin,
G'am-u shodi-yu ummid-u maolin.

Tilar ko'nglum tag'i ul yerga yetsam,
O'shal qizning munojotin eshitsam.

Yetib ul nag'madin jonimg'a rohat,
Zamoni o'lturub topsam farog'at —

Ki, oning nag'masi jismimda jondek,
Yurur ta'siri ham rag ichra qondek.

Ayo Furqat, quloq sol zabt etib hush —
Ki, shoyad naslimiz solg'ay debon go'sh.

Bas emdi, Furqatiy, nag'ma bayoni,
Ajaj bersa agar xatti amoni.

Yuqorida degan ikki tamosho,
Gazetda aylayin minba'd insho.

SHOIR AHVOLI VA SHE'R MUBOLAG'ASI XUSUSIDA

Yozay nuktai shoir ahvalidin,
Bayon aylabon qiyl ila qolidin.

Na xush ko'rsa olamda ta'rif etar,
Ani yaxshi so'z birla tavsif etar.

Agar o'lsa har yerda bir yaxshi joy,
Muzayyan imorat va yokim saroy.

Va yo o'lsa bir bog'i oliy maqom,
Kishi bo'lsa xursand anda mudom.

Va yo o'lsa sahroyi doman vasi',
Ko'rub bo'lsa har kimni ko'ngli rafi'.

Va yo fazl ahliki, topgan kamol,
Va yo odame bo'lsa sohibjamol.

Alarning xususida shoir hamon,
Demay yaxshi so'zni, nechuk der yomon.

Chunonchi sayohatda Sa'diy yurub,
Kitobig'a yozdi ko'p ishlar ko'rub.

Safar ayladi necha yil dahr aro,
Qilib necha kun sayr etar shahr aro.

O'shal shaharlarda tamosho qilib,
Turub necha kun anda ma'vo qilib.

Ko'rub har nechuk mardum oyinini,
Alar rasm-u qonun ila dinini.

Taajjub qilib yozdi gah nasr ila,
Gahi nazmi tul-u, gahi qasr ila.

Kimi ko'rmagan ishga qilsa ajab,
Birovdin ajabdur anga besabab.

Chunonchi biz ellar musulmon eli,
Xususan, bir oz xalqi Farg'on eli:

Borib Rusiya shahrida turmagan,
Alar rasm-u tartibini ko'rmagan.

Ko'rub qolsa nogoh imkon o'lub,
Taajjub qilur aqli hayron o'lub.

Agar shoir odam tamosho qilur,
Taajjub ko'rub, nazm insho qilur.

Balog'at erur she'r oroyishi,
Agar bo'lsa bir nukta gunjoyishi.

Chunonchi musulmoniya shoirlari —
Ki, she'r ilmig'a yaxshi mohirlari.

Edi Hofiz-u Sa'diy, Firdavsi ham,
Uchovoti dahr ichra bo'lg'on alam.

Debon necha yulduzlardan baland,
Suxandon kishilarg'a qildi pisand.

Balog'at chu bir jang-u hangomada
Budur dedi Firdavsiy «Shahnoma»da:

«Z-sumi suturon dar in fahm dasht,
Zamin shash shudu osmon gasht hasht».

Balog'at bila ushbu so'zlarni der,
Qachon osmon sakkiz-u olti yer?!

O'shal bayt bizlarga marg'ub erur,
Latofatlar anda base ko'p erur.

Yozarmiz base shod bo'lsa ko'ngul
Va yo g'amga mu'tod bo'lsa ko'ngul.

Na hol o'lsa anga muvofiq qilib,
Yana ramz-u mazmuniga loyiq qilib.

Baharhol yaxshi so'z bo'lsa taqrir etib,
Qilurmiz bayon elga tahrir etib.

MUXAMMASLAR

Birodarlar, meni boshing'a tushgan bu
nechuk savdo?
Qarorim yo'q quyun yanglig', na manda
manzil-u ma'vo,
Biyoboni tahayyurda qolibmen vola-u tanho,
Na yor-u hamdamim bordur, na qo'lda hosili dunyo,
Zamona purxatar, dushman adadsiz, do'st
beparvo.

Mani devona ko'nghlum bir-biriga turfa
moyildur —
Ki, jon bo'yniga tori zulfidin yuz ming salosildur,
Ajab bebok-u berahm-u ajab xunrez,
qotildur,
To'kar qonin ibosiz har kishi nogah
muqobildur,
Samandi toza mingach ilkida shamshiri
istig'no.

Niqobin go'shasidin gul yuzi andak
namoyondur,
Tamoshodin ko'zum bulbul kabi sarmast-u
nolondur,
Na husn-u na latofatdur? Xaloyiq barcha
hayrondur,
Na mushkin kokul ermish? Turrasi har yon
parishondur,
Muattardur hama go'yo tutoshib anbari soro.

Jahona tushti sho'rish kechalar chekkan
fig'onimdin,
Va lekin ul pari ogah emas so'zi nihonimdin,
Meni ajzu niyozim shul erur oromijonimdin:
Demaskim, hech nishon bormu bu rasvoyi
jahonimdin,
Kuyub kul bo'lsa oshiq, aylamas bir zarra
ham parvo.

Chunon afsurda bo'ldi jismi zorim ta'na toshidin,
Yetib so'zish dil-u jonimg'a ham bag'rim
xaroshidin,
Jahon daryo bo'lub oqti iki ko'zimni
yoshidin,
Ichurdi shum falak, vo hasrato, og'ulik
oshidin,
Fano bo'ldum, yo'q o'ldum ushbu olamdin
meni rasvo.

Falak bedodgar boshimg'a soldi buyla savdoni,
Balo yanglig' musallat ayladi ko'b sho'r-u
g'avg'oni,
Qayondin oshno qildi menga ul sho'xi ra'noni,
Sitamgar, purjafo, nooshno bir mohi anqoni,
Solibdur zulmidin miskin ko'ngulga g'orat-u
yag'mo.

Falak baxtiqaro hasratda umrumni ado qildi,
Giriftori firoq aylab, bu g'amga mubtalo qildi,
Qilib bedodgarliklar nigorimdin judo qildi,
Ul oy hajrig'a tashlab bo'rilarg'a oshno qildi,

Zokirjon Furqat _____

Nechuk hasrat, nechuk kulfatmeni
boshimgadur barpo?

Falakdin shikva aylab, dod-u faryod aylasam
kamdur,
Yurakka xuni hasrat to'ldi-yu ikki ko'zum
namdur —
Ki, men mundog' uqubatda, raqibim shod-u
xurramdur,
Rafiqim dard-u yorim mehnat-u anduh
hamdamdur,
Kishi yo'q so'rg'udek aftodaman faryod-u
vovaylo.

Falak kajravlig'idin jomi ayshim yerga
yaksondur,
Yutub xunobi hijron tah-batah bag'rim to'la
qondur,
Parilar zulfi yanglig' xotirim doim
parishondur,
Kecha ul oy firoqida ishim faryod-u afg'ondur,
Na kohish tushmagan bo'lsa g'arib-u xasta
jonimg'o.

Falak, toqing buzulsun, ko'b balolarga duchor
etting,
Birov ishqida anjaq notavon-u dilfigor etting,
Quloq solmay fig'onimga, meni ko'b bemador
etting,

Na qilsang qilg'il emdi, haddin osho intizor
etting,
Turarga qolmadi toqat ko'ngil ham vola-u
shaydo.

Falak, hasrat bila oxir oyirding ul nigorimdin,
Ko'ngil mulkini sohib davlati ul
shahsuvorimdin,
Ko'zum oqi qaro bo'ldi qarolob intizorimdin,
Bu qayg'udin agar o'lsam, unar lola
mazorimdin,
Ko'rarsiz dog'i hijron bo'lg'usi ul loladin
paydo.

Ko'rar kun bormu, yo Rab, qaytadin ul moh
tal'atni,
Ani oldida yig'lab bir-bir aytsam dard-u
hasratni,
Necha kun vodiysi hijronda chekkan ranj-u
mehnatni,
So'rarmu hech kishi aftoda bo'lgan zor
Furqatni,
Birov ishqida rasvolig'da o'lgan bormu deb
mundo.

* * *

Do'stlar, aysh-u tarab, fasli bahor istar ko'ngul,
Har kuni sahroda sayri lolazor istar ko'ngul,
Aylamak har sori ohular shikor istar ko'ngul,
Kabk raftorin ko'rarg'a ko'hsor istar ko'ngul,
Dog'i xursand etgusi har neki bor istar ko'ngul.

Gashtqilsang ahli donish bir necha ahbob ila,
To'la bo'lsa shishalar doim sharobi nob ila,
Gul yaqosi maskaning o'lsa kanori ob ila,
Bodai gulrang tortib, o'lturib odob ila,
G'ussa dardin aylabon daf'i xumor istar ko'ngul.

Mutribi xush lahjalar tanburini soz aylasa,
Ruhparvar bayt o'qub, xirgohi ovoz aylasa,
Gohi «Miskin» mashqi-yu, gohi «Chapandoz»
aylasi,
Yetsa anjomig'a ul g'ayrini og'oz aylasa,
Gohi qonun, gohi g'ijjak, goh dutor istar
ko'ngul.

Munising bo'lsa hamisha bir vafogustar
nigor,
O'zga fan etgan viqor-u aylagan tamkin shior,
Bo'lsang oning vasli birla komron-u komgor,
Shavqing oshib, bo'ynig'a qo'l tashlabon
beixtiyor,
Bo'sa la'lidin olib, qilmoq kanor istar ko'ngul.

Tortibon gah g'abg'abidin, gah uzoridin o'pub,
Islab-islab gohi ul chashmi xumoridin o'pub,

Ko'zni surtub, goh xatti mushkboridin o'pub,
Gah giribonin ochib, ko'ksida noridin o'pub,
Bosh tizig'a qo'yub, jon nisor istar ko'ngul.

Solmasa charxi falak davronimiz ichra xalal,
Aylabon bog'i hayotimiz xazon bodi ajal,
Ko'rguzub yuz jahd ayyomi bahor o'tmay
jadal,
Sayr qilsak, har bahor ayyomi sahro-yu jabal,
Chun ziyorat etmak as'hobi kibor istar ko'ngul.

Necha kun mahtob tunlarda olib turfa
chaman,
Tongg'acha gullar arosida tuzulsa anjuman,
Oy kabi qilsa munavvar bog' sahnin nastaran,
Yerg'a naqsh o'lsa sarosar soyai bargi suman,
Ustig'a qilmoq xino birla nigor istar ko'ngul.

Gar falak kajravlig'idin baxtyovar bo'lmasa,
Hamnishinim har kecha bir mohi paykar
bo'lmasa,
Orazidin baytul ahzonim munavvar bo'lmasa,
Muncha qilg'on orzulardin muyassar bo'lmasa,
Furqatiy, uzlat uchun bir kunji g'or istar
ko'ngul.

* * *

Manam sho'rida bulbul bo'stonidin
adashganman,
Yuzi gul, qomati sarvi ravonidin adashganman,
Dilim hajri-la qondur dilsitonidin
adashganman,
G'aribi ko'yi g'urbatxonumonidin
adashganman,
Va yo bir murg'i vahshiy oshyonidin
adashganman.

Netongkim, la'li yodi g'unchadek bag'rimni
qon aylar,
Xayoli nargisi andoq nahif-u notavon aylar,
Nihoni kuydurub hajr o'ti po'st-u ustuxon
aylar,
Tirikman zohir, ammo xalq bir odam gumon
aylar,
Vagar na mahz surat tanda jonidin
adashganman.

Boshimda hush yo'q, hayronlig'imning boisi
shuldur,
Ketib aql-u xirad, nodonlig'imning boisi
shuldur,
Yetim qo'zi kabi nolonlig'imning boisi
shuldur,
Xarob-u besar-u somonlig'imning boisi
shuldur —
Ki, bir sohibkaromat ostonidin adashganman.

Biyobon gardiman Majnun kabi bir Layli
yodida,
Bo'lub oshufta zanjiri junun basti kushodida,
Qilurmish qat'i rah har kimsa oxir o'z
murodida,
Yugursam har tarafga ayb qilmanglar bu
vodiyda,
Misoli telba itmen, karvonidin adashganman.

Malomat o'qlaridin dilfigor-u siyna chok oxir,
Yiqildi notavonliq birla jismi dardnok oxir,
Xudog'a shukrkim, ketdim aning yo'lida pok
oxir,
Muhabbat o'tida kuygach, bo'lub bir to'da
xok oxir,
Fano bodi tegib nom-u nishonidin
adashganman.

Qilib yod o'tgan umrimning chaman obi
ravonidin,
Muhabbatnomalarni yod olib savsan
zabonidin,
Tikan zaxmini anglab g'unchani(ng) qonlig'
dahonidin,
O'qub gul daftarini bir varaq fasli xazonidin,
Jahon bog'ida bulbuldek fig'onidin
adashganman.

Siyodat charxini(ng) mehri, asolat avjini(ng)
mohi,

Shohi mulki fano kursi-yu shams-u arsh xirgohi,
Yetushmas xoki ko'yig'a Sikandar hashmat-u
johi,
Tariqat mulkini shohi, haqiqat sirrin ogohi,
O'shandoq piri komil xonadonidin
adashganman.

Ko'ngulni el diyori ichra bedog', ibtihoj
jaylay,
Borib kimg'a g'aribliq birla arzi ehtiyoj aylay?
Na sud andinki sharhi dostonim yuz quloch
aylay?
Boshimg'a tushti g'urbat oftobi na iloj aylay?
Falakni(ng) gardishidin soyabonimdin
adashganman.

Qadimni xam ko'ronlar ishq bori mehnati
derlar,
Tanimda notavonliq boisi g'am kasrati derlar,
Qayonda bo'lsa bir g'urbatkashida ulfati
derlar,
Zamona ahli muxlis bu sababdin Furqatiy
derlar,
Necha yildur bir oshubi zamonidin
adashganman.

NAVOIY G'AZALIGA MUXAMMAS

Lolag'a boqmoq abas ruxsori olingni ko'rub,
Bog' aro nargisg'a ham chashmi g'azolingni
ko'rub,
Istamak sunbul xato zulfi kasholingni ko'rub,
Sahvdur to'biy demak ra'no niholingni ko'rub,
Yoki jannat bog'i gulzori jamolingni ko'rub.

Ne malohat erdikim, yakbora, ey zebo jamol,
Yuz ochib, bir g'amza birla aylading behush-u
lol,
Butmog'ilkim, ko'z qizorg'on chog' edi bu bir
xayol,
Ravzada kavsar qirog'inda xayol ettim Bilol,
Yuz uza lab, lab uza shabrang xolingni ko'rub.

Bu zamon Tangri-chun, ey mahvash,
o'zingni ayla fosh,
Toki ul bechora aylar ishtiboh ichra talosh,
Partavi nuri jamolingdin to'lub ko'ziga yosh,
Sog'inur oshiqlig'ingg'a ro'baro' kelgach
quyosh,
Ko'zguda mashshota har soat misolingni
ko'rub.

Bog'boni dahr topmay aylanib davri falak,
Qadd-u ruxsoring kabi bir sarvi gul bo'ldi
halak,

Zokirjon Furqat _____

Orazing borinda bulbul qilmadi gulni tilak,
Sarvdin qumri, netong, ram qilsa to'biydin
malak,
Jilvai qad holatida e'tidolingni ko'rub.

Hasratingdinkim ko'ngul zohir tazallum ayladi,
Soya soldi boshima sarving tarahhum ayladi,
Yig'ladim xatting ko'rub, g'unchang tabassum
ayladi.

Nargising afsun-u gul barging takallum
ayladi,
Aqli kull topdi fireb ul makri dolingni ko'rub.

Yo'q soching savdosidin bir lahzai tamkin
menga,
Yetkurub nakhat sabo to bermasa taskin
menga,
Telbaman xotir parishonlig' erur oyin menga,
Elga ishratdur yangi oy ko'rsalar, lekin
menga —
Yuzlanur oshuftaliq mushkin hilolingni ko'rub.

Furqatiy, borsen aning ishqida ohi sard ila,
Muztarib hol-u sirishki ol-u ro'yi zard ila,
Qolma devor ostida bu ranj-g'am parvard ila.
Sudra ul yon, ey Navoiy, o'zni muhlik dard ila
Shoyad etgay rahm ul qotil bu holingni
ko'rub.

NAVOIY G'AZALIGA MUXAMMAS

Ko'nglum istar o'lg'oli ul hur siymo birla
do'st,
Ya'ni ul noz ofarin-u jilva piro birla do'st,
Telba qilmoq qasdida bo'lganda dono birla
do'st,
Yor bo'lmoq, tong emas, men zor-u rasvo
birla do'st —
Kim, pari gohi bo'lur majnuni shaydo birla
do'st.

Og'zidin istab nishon birdam tinib
o'lturmag'um,
To tirikmen, o'zga so'z bir nukta andin
so'rmag'um,
Aylamay jondin گزار lofi muhabbat urmag'um,
La'lini sevdim, ko'zini qatlidin qayg'urmag'um,
Ne g'am o'lmakdin, kishi bo'lsa Masiho birla
do'st.

Yo'q erur kunji xarobot ichra hech kimdin
kamim,
Xishti xum tojim, erur sing'on qadah
jomi Jamim,
Mastlik, beboklik doim rafiқ-u hamdamim,
Bodapaymo zohid o'lsa, dushman ermasdur
g'amim,
Menki bo'ldim bir harifi bodapaymo birla
do'st.

Gar bag'ir qoni nishoni ko'z yoshinda ko'p
turur,
Oncha yoshlar boshima otqon toshinda ko'p
turur,
Demangiz ahli junun nechun qoshinda ko'p
turur,
Zulfi savdosi bu savdoyi boshinda ko'p turur,
Bo'lsa savdo ahli, tong yo'q, ahli savdo birla
do'st.

Yuz bahor o'lsunki, olam gulshani imkonida,
Yo'q erur bo'yi tarovat sunbul-u rayhonida,
Yotmoq andin xo'b emasmu hasrati zindonida,
Sarv qadlig', gul jabinlig' do'stni hijronida,
O'lg'omen ne gul bila, ne sarvi ra'no birla
do'st.

Mehr banda oraziga, garchi ul Xovar shahi,
Bo'ldi yer o'pmoq ila charxi muallo xirgahi,
Chashmi ummidim yorur fikr aylagach xoki
rahi,
Hajridin olam qorong'udur, vale yo'q, dargahi,
Jilva qilsa ul jamoli olam oro birla do'st.

Yo'q menga chekmak yotib ko'yida g'amdin
yaxshiroq,
Xorliq hajrida bo'lgan muhtaramdin
yaxshiroq,
Javri oning o'zgalar qilgan karamdin
yaxshiroq,

Xizr yuz mehr ila tutqon jomi Jamdin
yaxshiroq
Tutsa may durdini yuz toroj-u yag'mo birla
do'st.

Hirs loyi birla qilma domaning oludaliq,
Olam ichra bo'lmagay mundin yomon
behudaliq,
Sen-u tashvishi jahon-u ranj-u g'am
farsudaliq,
Bo'lma dunyodo'st, gar istar esang osudaliq,
Lek har ne qilsalar bo'l ahli uqbo birla do'st.

Furqato, ich zahr ayog'i kelsa, qonma
do'stdin!
Talxkom o'ldim dema! Hargiz o'somna
do'stdin,
Tonimaslik qilsa ham harchand tonma
do'stdin,
Ey Navoiy, necha dushman bo'lsa — yonma
do'stdin,
Chunki bo'lmushdur senga yuz ming
tamanno birla do'st.

NAVOIY G'AZALIGA MUXAMMAS

Ko'ngilda orzuyi vaslini ul oliyjanob aylab,
Yetib erdim firoq anduhi jonimg'a azob aylab,
Banogah gul yuzig'a, sunbuli zulfin niqob
aylab,
Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux,
shitob aylab,
Xiromi sur'atidin yuz uza terdin gulob aylab.

Qilich tortib qinidin qon to'karg'a ul
jafogustar,
Ko'zini turkidin yag'mo solib olamga sar
to sar,
Nigah paykonin olmosin dag'i aylab ango
darbar,
Qilib mujgonni shabro'lar kabi jon qasdig'a
xanjar,
Belig'a zulfi anbarboridin mushkin tanob
aylab.

Agarchandi adoshib aqldin bo'ldi tilim alkan,
Ko'rub shavqi bila aylar edi jon-u dilim
shevan,
Qarong'u kechani kunduz qilib, ey sho'xi
jodufan,
Quyoshdek chehra birla tiyra kulbam
aylagach ravshan,
Menga titratma tushti zarra yanglig'
iztirob aylab.

O'shal oqshom menga qandog' saodat
oqshomi erdi —
Kim, ul oromijon tanho kelib eshik ochib
kirdi,
Dedim: — Mehnat tutub, ko'zga ayog'in
qo'ysang arzirdi,
Kulub o'lturdi-yu ilkim tutub yonida yer
berdi,
Takallum ayladi har lafzidin durri xushob
aylab.

Debon ishqim yo'lida sodiqam men, sen
nechukdursan?
Chekib hajring visola loyiqam men, sen
nechukdursan?
Vafoda o'zgalardin foyiqam men, sen
nechukdursan —
Ki, ey zori balokash oshiqim, mensiz
nechukdursan?
Men o'ldum lol-u so'z aytolmayin mayli javob
aylab.

Ko'rub tanholig'im g'am go'shasi ichra dili
kuydi,
Tarahhum birla ko'nglum ovlabon shafqat
qilib suydi,
Xumorim anduhidin jon yutmog'im
magar tuydi,
Chiqardi shishai maydog'i bir sog'ar to'la quydi,
Ichib tutti menga yuz nav nozoso itob aylab.

Zokirjon Furqat _____

Dimog'ingg'a nasimi vasl tegdimuki jo'sh
etding,
Muroding g'unchasi ochdimu? Bulbuldek
xuro'sh etding,
Sabab na erdi yakbora dog'i o'zni xomush
etding –
Ki, ey majnun, pari ko'rding magarkim tarki
hush etding?
Takallum qil bu sog'arni ichib raf'i hijob aylab.

Ishorat aylar erdi bo'salar yuzdin, gahi ko'zdin,
Og'izni olma deb la'limdin aslo, ko'zni ham
yuzdin,
O'zumni to'xtatolmay buyla lutfomizliq
so'zdin,
Ichib faryod etib tushdim ayog'ig'a ketib
o'zdin,
Meni yo'q bodakim, lutfi aning mast-u xarob
aylab.

Netarsen kecha yoring kelsa, Furqat, uyquni
mundoq?
Kechurgil kechani bedorliqda har tuni
mundoq,
Demishdur ishq ustodi muhabbat yo'suni
mundoq,
Anikim eltgay noz uyqusi ishrat tuni mundoq,
Navoiydek yotar to subhi mahshar tarki xob
aylab.

FUZULIY G'AZALIGA MUXAMMAS

Jon aro shakli alif ra'no niholing sadqasi,
Nutqimning ma'nosi ul shakkar maqoling
sadqasi,

Yuz ko'ngul bir ko'nglunga kechmish
xayoling sadqasi.

Ko'z qarosi ashki gulgunimda xoling sadqasi,
Ashki gulgunim guli ruxsori oling sadqasi.

Hajr aro kuydim butun boshdin-ayog' uryon
tanim,

Ban junun sahrosini(ng) majnuniyam, uryon
tanim,

Ishq o'ti ta'siridinmu o'lg'udek so'zon tanim,
Dudi ohimdin qarormish zor-u sargardon

tanim,
Otashin ruxsor-u mushkini hiloling sadqasi.

Hech otash tez emaz ushshoq chekmish
ohtak,

So'z hech dilso'z emas bu nolai jonkohtak,
Etgadolar holina lutf-u tarahhum shohtak,

Shavqi vasling yonduran noqis vujudim
mohtak,

Zarra-zarra oftobi bezavoling sadqasi.

G'ayr gar versa hayoti Nuh qilmam tarbiyat,
Tilki ermaz zikringa mashruh qilmam tarbiyat,

Zokirjon Furqat _____

Yodinga dil o'lmasa maftuh qilmam tarbiyat,
Oshyoni tanda murg'i ruh qilmam tarbiyat,
O'lmasa parvonavash sham'i jamoling sadqasi.

Jon fidodur dardingakim, tan ani tortolmadi,
Zo'rayur tobora garchi dilda toqatqolmadi,
Charxkim, boshimg'a juz savdoyi hajring
solmadi,
Hajringa jonim fido o'lsunki, jonim olmadi,
Etdim oxir mujdai zavqi visoling sadqasi.

Yerda oqdi suv o'lub ko'zlar yo'lingda
termula,
Bir kelib, bu intizoring, holini so'rsang no'la,
Baytulahzon ayladim Ya'qubtak barpo bo'la,
Yusufi gumgashta kimdurki sango monand
o'la
Yuz anga monand husni bemisoling sadqasi.

Shayxi noqis xonaqohina qadam qo'ymoq
hamon,
Nuqs ko'nglungg'a yetib, joningg'a aylaydi
ziyon,
Maskan etdim, Furqatliy, mayxonadur
dorulamon,
Afvedar xizmatda har nuqsonimiz piri mug'on,
Ey Fuzuliy, jonimiz ahli kamoling sadqasi.

MASHRAB G'AZALIGA MUXAMMAS

Oshiqi dildodadurman, dilbarimni kavlama,
Axtar o'ldi g'am o'tida paykarimni kavlama,
Sayr qildim bahr-u bar xushku tarimni

kavlama,

Ey sabo, g'ambodadurman, bistarimni

kavlama,

Chun shafaq oludaman, xokistarimni kavlama!

Charxi kajraftordin behad alomatlar kelur,
Bu sabab ko'zdin yuza ashki nadomatlar kelur,
Gar yurakni qo'zg'asam shirin hikoyatlar kelur,
Har zamone Laylidin menga kitobatlar kelur,
Sanki Majnun bo'lmasang, sardaftarimni

kavlama!

G'amdin ozoda bilur ozodalarni(ng) holini,
Yo'qsa miskin na bilur shahzodalarni(ng) holini,
Xurdadonlar bilmadilar sodalarni(ng) holini,
Xonavayronlar bilur aftodalarni(ng) holini.
Eyki mahram bo'lmasang, chashmi tarimni

kavlama!

Ishq savdosi tushub boshing'a, ahvolim xarob,
Jonim aylar tan aro siymob yanglig' iztirob,
Ta'na qilma, zohido, ko'nglumda g'amlar

behisob,

To kishig'a dard tegmay, bo'lmadi bag'ri

kabob,

Dilda darding bo'lmasa, dardi sarimni kavlama!

Zokirjon Furqat _____

Necha kunlar hamdam o'zga vahshi-yu tayr
ayladim,
Bilmadim bu yo'lda shar qildim va yo xayr
ayladim,
G'am hujum etti, aning-chun maskanim dayr
ayladim,
Lomakonni(ng) shahrini bir hu bila sayr
ayladim,
Jabroili ishqman, bol-u parimni kavlama!

Gah o'zumni suvga urdum, goh o'tga
dam-badam,
Bo'lmadi davron safosi lahzae boshimg'a kam,
To shariatni tutub qo'ydim tariqatga qadam,
Bahri rahmatga kirib qildim vujudimni adam,
Ma'rifatdin bexabarsen, gavharimni kavlama!

Chun qadam qo'ydung bu yo'lg'a, bo'lma
bematlab vale,
Faqr-u zillat bul, talashma g'urbati mansab
vale,
Furqatiy, sargashta bo'lsang, yig'lagil har shab
vale,
Durri daryoyi maoniy bo'ldi chun Mashrab
vale,
Diydabiyno bo'lmasang, ko'b javharimni
kavlama!

MUSADDASLAR

MUNOJOT-MUSADDAS

Yo Rab, kushoyishi ber bu kori bastalarga,
Ro' berdi nahsiyatlar ko'p ahli rastalarga,
Maqsad guli ochilmay, yuz qo'ydi dastalarga,
G'am shohig'a chu bulbul doim nishastalarga,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Avval zaifalardin sharm-u hayo yo'qoldi,
So'ngra o'g'ul atodin qilmoq ibo yo'qoldi,
Ham ag'niyo eliding jud-u saxo yo'qoldi,
Bir-biriga oshnodin mehr-u vafo yo'qoldi,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Af'olimizga boqsak, oxir zamon bo'lubdur,
Ahvoli xalq kundin kunga yamon bo'lubdur,
Hech kin ishida yo'q sud, koni ziyon bo'lubdur,
Oxir zamon nishoni behad ayon bo'lubdur,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Tobora barham o'ldi faqr ahlidin qanoat,
Na shayxda riyozat, na so'fida ibodat,
Bo'lduk bu fe'limizdin sharmandai qiyomat,
Gumrohlarga yo'lni qilg'il o'zing inoyat,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Uch yil bo'lurki, qolmish nakbatga ahli bozor,
Ko'rmas tijoratidin ko'b naf' xayli tujjor,
Ahli hunarda ham yo'q chandon ravnaqi kor,
Yo'qtur o'zungdin o'zga bir mehribon-u g'amxor,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Dono hama zalil-u, nodon aziz bo'ldi,
Topti rivoj-u ravnaq, kim betamiz bo'ldi,
Mardoni vaqt alhol xunsoyu xez bo'ldi,
Olimga aylaguvchi oxir sitez bo'ldi,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Hasratki, ketti elni tobora fe'l-u xuyi,
Yo'q ul hech sababdin bir yerga obro'yi,
Bo'ldi base shikoyat har yerda guftigo'yi,
Bid'at ishi hamisha onlarni justijo'yi,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Kuffor ahli ichra hayron o'lub qolibmiz,
Na hukm qilsa, darhol buyrug'ini olibmiz,
O'z boshimizga mundog' ranj-u balo solibmiz,
To emdilikda olig'-solig' berib tolibmiz,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Zulmatni girdbodi tegdi, quyunda qolduk,
To'foni hayrat, eyki, g'arqi jununda qolduk,

G'aflatila o'tub umr, kulgu-o'yunda qolduk,
Kuffor bandi ichra sonsiz tugunda qolduk,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Qozi-yu mufti, a'lam doim hazin-u ma'yus,
Din posini tutay deb zindoni g'amda mahbus,
Bechoralar na qilsun, bo'lsa siyosati Rus,
Qo'ymaydi bir tarafdin xalq ichra nangu
nomus,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Afsus, yaxshilarni yo'q qadr-u e'tibori,
Bo'lsa yamon kimiki, bolodur iqtidori,
Bo'ldi fasod-u fitna shul asrlarda joriy,
Lutf etki, qullaringni bo'lsun saloh kori,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Har qayda sarfayog'lar qozishinos bo'ldi,
Barpo qilurga fitna bekam-u kost bo'ldi,
El ichra qadr topti kim xushlibos bo'ldi,
Zoti bek o'tmaganlar sohibasos bo'ldi,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

O'z xalqimiz fi'oli ko'p bo'ldi suratoro,
Din ahliman deb aylar kuffor ila madoro,
Pinhoniya ma'siyatlar tobora oshkoro,

Isyona to'ldi mundin to sarhadi Buxoro,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Dunyoyi dunni harchand be'etibor ko'rduk,
Faqr ahlimiz demakni olamda or ko'rduk,
Nafs ilgida hamisha o'zni duchor ko'rduk,
Shar'i nabiyya boqduk, ko'p xor-u zor
ko'rduk,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Biz bandai umidvor, sandin najotimiz bor,
Boriy, Rahim otingdin xatti barotimiz bor,
Harchand ma'siyatdin sango uyotimiz bor,
Ul shohi anbiyoga ummatlig' otimiz bor,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Ma'yusi zor-u g'amgin aftodalarni haqqi,
Xotirhazin-u ranjur g'ambodalarni haqqi,
Bir umr orzudin ozodalarni haqqi,
Uqbo ishiga bo'lgan omodalarni haqqi,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Yo'q sandin o'zga, yo Rab, darmondalar
panohi,
Dunyo-yu oxiratda sansan umidgohi,
G'aflatda umr o'tmish, ming hayf, sol-u mohi,

Lutfing yeliga ko'hi jurm uyla parri kohi,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Biz odam og'li bo'lsak, inson ishi xatodur,
Har shay aslisiga roji bo'lub ketodur,
Lutf-u karamni sandin banda umid etodur,
Furqatquling gunahkor, san sohibi atodur,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora xastalarga,
Ranjur-u zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

SAYDING QO'YABER, SAYYOD

Sayding qo'yaber, sayyod, sayyora ekan
mendek,
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek,
O'z yorini topmasdin ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Kes rishtanikim: qilsun chafaklar otib jasta,
Hajrida alam tortib, bo'ldi jigari xasta.
Tog'larga chiqib bo'lsun yori bila payvasta,
Kel, qo'yma balo domi birla oni pobasta,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Besh kun seni davringda bechora xirom etsun,
Ohular ila o'ynab, ayshini mudom etsun,
Yomg'ur suvi to'lganda, tog' lolani jom etsun,
Haqqingg'a duo aylab, umrini tamom etsun,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Sargashta bu vodiya bir boshig'a rahm etkil,
Yo'q toqati bandingga, bardoshig'a rahm
etkil,
Yig'lab senga termulur, ko'z yoshig'a rahm etkil,

Rahm etmasang o'ziga, yo'ldoshig'a rahm etkil,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Tog'da ochilib lola, yer sabza bahor o'lsa,
Oxir bu nechuk bedod, olam anga tor o'lsa?
Chiqmay desa joyidin, uzlatda figor ulsa,
Gar chiqsa banogohi domig'a duchor o'lsa,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Bechorani zulm aylab, qo'l, bo'ynini bog'labsan,
Har sori chekib-sudrab, o'ldurgali chog'labsan,
Ko'ksini jafo birla lola kabi dog'labsan,
Sotmenga, agar qasding olg'uchi so'rog'labsan,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Yo'q hushi, pari tekkan devonaga o'xshaydur,
Ko'z yoshi yana to'lgan paymonaga
o'xshaydur,
G'am seli bilan ko'ngli vayronaga o'xshaydur,
Furqatda bu Sa'dullo hayronaga o'xshaydur.
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

* * *

Uch xarobotiy erurmiz sokini mayxonamiz,
Xum boshidin charx urub, monandi bir
parvonamiz,
Mast o'lubmiz jo'shishi maydin ajab
devonamiz,
Holimiz dunyo g'amidin, forig'i koshonamiz,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur
armonimiz.

Uch alamkashmiz, hamisha tolibi jononamiz,
Ko'yig'a bormoqdin ammo el aro afsonamiz,
Nash'ae paydo qilibmiz, aqldin begonamiz,
Na harosi domdurmiz, na asiri donamiz,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz.

Uch qalandarmiz, qalandarxonada hamxonamiz,
Hasrat aylarmiz negokim rondai har xonamiz,
Qayda qoldi, vo darig'o, sog'ar-u paymonamiz,
Dayr pirini(ng) huzuridin ajab jurmonamiz,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz.

Uch birodarmiz, keling, bir dam farog'at aylaluk,
Yo qalandarvash bo'lub, olam sayohat aylaluk,
Dayr pirig'a borib yokim itoat aylaluk,
Harna zulm etsa agar sabr-u qanoat aylaluk,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz.

Uch musofirmiz, keling bir-bir hikoyat aylaluk,
Ul raqibi ro'siyahlardin shikoyat aylaluk,
Xonaqah kunjig'a borib yoki toat aylaluk,
Yo borib mug' dayri ichra istiqomat aylaluk,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz.

Uch adoyimiz, kelinglar nola og'oz aylaluk,
Qayda kulfat ahli bo'lsa, o'zga damsoz
aylaluk,
Boqmaluk dunyo yuzig'a, to ango noz aylaluk,
Emdi bulbuldek o'shal sorig'a parvoz
aylaluk,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur
armonimiz.

Uch navoiymiz, kelinglar, azmi gulshan aylali,
Andalibga qo'shulub ul yerni maskan aylali,
Kuydurub gul shox-u yafrog'ini gulxan aylali,
Chihl tanni na etarmiz, o'zni chor tan aylali,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz.

Uch g'aribiymiz, keling, sayri guliston aylali,
Nola aylab, andalibni(ng) bag'rini qon aylali,
Shikva aylab, sarv-u sunbulni parishon aylali,
Qumrilarni muhtaloyi dog'i hijron aylali,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz.

Zokirjon Furqat _____

Uch vafoiymiz, kelinglar, azmi gulzor aylali,
Borg'ali yor oldig'a o'zni sabukbor aylali,
Yorni(ng) uyqusidin bir lahza bedor aylali,
Xoh bexud bo'loli, xoh o'zni hushyor aylali,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz.

Uch balokashmiz, ko'ngul ul mahvashi
xushxo'dadur,
Kecha-kunduz hushimiz ul sho'xi
shiringo'dadur,
Boribon ko'rdukki, bistar ustida uyqudadur,
Boshig'a kelmish tabib-u yor boshi
zonudadur,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur
armonimiz.

Uch mukaddar ko'yig'a borduk raqiblar
to'rdadur,
Yo pusib jinsi farangdin ul pari uyqudadur(?)
Kokuli yuzg'a parishon, mushki anbar
sudadur,
Yuzlari g'arqi araq, barcha abir oludadur,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur
armonimiz.

Uch xarobotiy borib ko'rdukki, yor uyqudadur,
Ranjishi chashmi bila ko'b hasrat-u qayg'udadur,

Bistari za'f uzra yotibdur tani farsudadur,
Voykim, ahboblar, borg'onimiz behudadur,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz.

Na uchun kelding harimig'a, ayo nodon tabib?
Bizlara ag'yordursan, bedarak, afg'on tabib,
Boshidin turg'il nari behudasan, yolg'on tabib,
Oh tortarmiz, bo'larsan yer bila yakson, tabib,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz.

Na sababdin o'lturursan yor boshig'a, tabib?
Bir zamon ko'shish etib andog' maoshig'a, tabib,
Qo'shma bul dorularingni yorim oshig'a, tabib,
Oh birla kuydururmiz kelma qoshig'a, tabib,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz.

Na sababdin bu kecha munda kelibsana, ey
tabib?
Har tarafdin so'z qilursan ham chunon da'viy,
tabib,
Boshidin turg'il nari, behuda, bema'ni tabib,
Furqatidydin qil hazar, albatta, ey jo'giy, tabib,
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak yo'q erur armonimiz.

MUSABBA'

Mo'tabar ko'z yoshi Haq nazdida durri nobdin,
Ham libosi faqr behtar shol ila sinjobdin,
Bistari qolinda rohat birla ko'rgan xobdin,
Kunji uzlat bo'ryosi xo'bdur har bobdin,
Bor emish bir kun azobi, vahm qil Vahhobdin,
Ahli dunyo suhbat i chra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

Mardi Haqsan, chiq aloyiq nomliq girdobdin,
Gardaning xam qil ibodatg'a rahi odobdin,
Qil ajal yodini ketmasdin burunroq tobdin,
Och ko'zingni ravzanin g'aflatga to'lmay hobdin,
Chiqti bo'yla fole neku naqshi usturlobdin,
Ahli dunyo suhbat i chra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

Xotiri mahzun qachon xush bodai unnobidin,
Gar labolab bo'lsa ham oltun qadah julobdin,
Xo'b emas bosh og'riganda bir qoshiq ardobdin,
Qil talab kavsar suyini, aylar baqo tavnobdin,
Bilmasang, so'rg'il borib bir xurdabin ahbobdin,
Ahli dunyo suhbat i chra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

Bu raboti ko'hnadur qolgan necha arbobbodin,
Zo'ri bozuga ishongan Rustam-u Suhrobdin,
Bahman-u Jamshid ila Iskandar-u Dorobdin,
Chiqmadi hargiz alar bu g'amkada qullobdin,

Chiqtilar bir bobi digardin, kirib bir bobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

Oqil ersang, ibrat olg'il emdi shayx-u shobdin,
Istamas dunyoni, chiqmas go'shai mehrobdin,
Yemishi laxti jigardin, ichmishi – xunobdin,
Dur emas qilg'on duosi bu sabab ijobdin,
Bo'lg'ucha bir necha kunlar jumlai shodobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

Har qadar dastingda bo'lsa gavhari noyobdin,
Xobgohing to'da bo'lsa baxmal-u kimxobdin,
Bazminga bo'lsa muyassar har nechuk asbobdin,
Titrasa qonun mug'anniy ilgida mizrobdin,
Jomi hasratda yutarsan oqibat zardobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

Qildi sargardon falak ko'p elni log'-u lobdin,
Shu'lai kavkabni o'tkargum debon mahtobdin,
Qatra topmay tashnalar bu ko'zai do'lobdin,
Fol aylab, bu nechuk deb, Furqatiy, dastlobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

MUSTAZOD

Aqlimi oldi, hayratg'a soldi bir turfa jonon,
sultoni xo'bon,
Ul bir tabassum, aylab takallum, chun mohi
tobon bo'ldi namoyon.

Soqibe ermiş, jonimg'a kirmish, qonimni
termish paykoni tiyri
Maddi nigohi, javshan siyohi, ikki sipohi tan
etti vayron.

Monandai gul, chun shoxi sunbul, aylab
tazalzul keldi nigorim,
Ochib yuzini, tashlab o'zini, qosh-u ko'zini
javlon beribon.

Ahvoli zorim, sorig' uzorim, lutf ayla, yorim,
aylab tamosho;
Bildi-yu so'rdi, bu nav' ko'rdi, bir lahza turdi
menga boqibon.

Noz-u firoqi, vasl ishtiyoqi, bir zarra boqib
qo'ymay vujudim —
Kuydurdi jonim, ham xonumonim, nom-u
nishonim bir lahza, bir on.

Jonimda toqat, na tanda holat, na dilda
rohat, ko'b notavonman,
Yo'qsa netarmen, qayon ketarmen, nechuk
etarmen, majruh-u vayron.

Aylay ayoni, g'amni bayoni, bir dam zamoni
tutqil qulog'ing,
Bag'rim siqibon, tahrir etibon, o'zdin ketibon,
bo'lmay parishon.

Nasli pariydur, lab shakkaridur, kabki daridur
ul jilva raftor,
Yo hur-u g'ilmon, bilmam nechuk jon, tovusi
bo'ston, sarvi xiromon.

Aylab yaqo chok, mahjur-u g'amnok,
Furqat alamnok qilib nadomat,
To bari doman, monandi savsan,
chun joni betan motamda qolg'on.

MUNDARIJA

G'azallar

"Ibtido qildim..."	3
"Ey bayozi karaming..."	4
"Bahor ayyomi bo'ldi-yu..."	5
"Bu zamona xo'bro'sida vafo..."	7
"Qaroyg'on dilg'a bergil nuri pokingdin..."	8
"Ko'ngul dardig'a topmay..."	10
"Tabassum birla..."	12
"Keldi holimni so'rab..."	13
"Aylama ma'lum hargiz..."	14
"Yerga pomol o'ldi gul..."	15
"Muhabbat domig'a ko'nglum..."	16
"Ummati sargashtaman..."	17
"Iydkim, xalqi jahong'a..."	20
"Yig'lamoqdin bir pari hajrida..."	21
"Ul qaro ko'z qo'zlariga..."	22
"Muanbar xatlaringni bo'yi..."	23
"Umr qarori yo'q..."	25
"Sarv-u gulda yo'x tarovat..."	27
"Fasli navbahor o'ldi..."	29
"Tavofi Ka'bag'a..."	30
"Biz istig'no eli..."	31
"Ko'zlaring har go'shasi..."	32
"O'rtanur tokay firoqing..."	34
"Na bo'ldi, nigoro..."	35
"Sen kabi badmehrligni..."	36
"Bo'lsa kim xilvatnishin..."	37
"Vahm birla g'allani..."	38
"Orzu vasling qilurdim..."	40
"So'rg'oli holimni..."	41
"Ko'ngul qo'ymoq xatodur..."	42
"Jannatni(ng) gullaridin..."	43
"Chaman sahnida derlar..."	44
"Surmadin ko'zlar qaro..."	45
"Ne balolig' erdi..."	47
"Nigori dilnavozim..."	48
"May ichibkim..."	49

"Dilbaro, boshing..."	50
"Yuz-u zulfini furqatidin..."	52
"Keldi hajr anduhi birlan..."	53
"Meni, ey gulruxim..."	54
"Firoqing birla..."	55
"Yuzlaringdin sharm etib..."	56
"Fig'onkim, ul buti siymin zaqandin..."	57
"Ohkim, yo'qtur meni tab'imga loyiq ulfatim..."	59
"Ishqingda kuyub, jono..."	60
"G'aribi bu viloyat..."	61
"Ohkim hamdard yo'q..."	62
"Alamlik qumriman..."	63
"Ey musaffo..."	65
"Yuz-u qadding..."	67
"Umr xush o'tmas..."	68
"Vafo aylab yiroqdin..."	69
"Termu tobi bodadin..."	70
"Bir qamarsiymoni ko'rdum..."	71
"Har kecha..."	72
"To so'zga lab..."	73
"Qilmag'aydim senga..."	74
"Ohkim, rahm..."	75
"Elga keldi..."	76
"Yuzidek gul..."	77

Masnaviylar

Nag'ma va nag'magar va aning asbobi va ul nag'ma ta'siri xususida	78
Shoir ahvoli va she'r mubolag'asi xususida	83

Muxammaslar

"Birodarlar, meni boshimg'a..."	86
"Do'stlar, aysh-u tarab..."	90
"Manam sho'rida bulbul..."	92
Navoiy g'azaliga muxammas	95
Navoiy g'azaliga muxammas	97
Navoiy g'azaliga muxammas	100
Fuzuliy g'azaliga muxammas	103
Mashrab g'azaliga muxammas	105

Musaddaslar

Munojot-musaddas	107
"Sayding qo'yaber, sayyod..."	112
"Uch xarobotiy erurmiz..."	114

Musabba'

"Mo'tabar ko'z yoshi Haq nazdida..."	118
--	-----

Mustazod

"Aqlimi oldi..."	120
------------------------	-----

Adabiy-badiiy nashr


ZOKIRJON FURQAT

"ISHQINGDA KUYUB, JONO..."

Muharrir: *Dilrabo Mingboyeva*
Badiiy muharrir: *Farrux Ermatov*
Sahifalovchi: *Azamat Qayumov*
Musahhah: *Dilfuza Mahmudova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
«ADABYOT NASRIYOTI» MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2021.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

 (+98) 128-30-04.

Bosishga 20.04.2021-yilda ruxsat etildi.
Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂.
Ofset bosma. Shartli b.t. 4.7.
Adadi 2000 nusxa. Buyurtma №

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida
chop etildi. 100200, Toshkent shahri,
Adham Rahmatko'chasi, 10-uy.